

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Raxmanova Dilfuza Uchkunovna

INKLYUZIV TA'LIMDA FANLARNI
O'QITISHNING PEDAGOGIK
SHART- SHAROITLARI

MONOGRAFIYA

TOSHKENT – 2023
«FAN ZIYOSI» NASHRIYOTI

UO'S: 605.44.515

KBK: 72.4(Ў36)Б3

R-14

D.U.Raxmanova «Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari» monografiya. – T.: «Fan ziyosi» nashriyoti. 2023. 104 b.

Mazkur monografiyada inklyuziv ta'lim, pedagogik jihatdan o'qitish, o'qituvchi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, pedagogik professiogramma, pedagogik texnologiyani yoritishga qaratilgan.

Inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitishning o'ziga xos pedagogik-psixologik va tashkiliy tomonlari milliy xorijiy tajribalarni tahlil etish orqali ilmiy asoslangan. Inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitishning o'ziga xos tamoyillari va omillarni aniqlangan. Inklyuziv sinf o'quvchilarining fanlardan o'zlashtirish darajalarini o'rganish metodikalarini samaradorligi o'rganilgan. “Inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni samarali o'qitishga oid metodik tavsiyalar berilgan.

Ushbu monografiyadan umumiy o'rta maktab inklyuziv ta'lim fanlarini o'qitish dasturlarini ishlab chiqishda hamda talaba, pedagog, ilmiy izlanuvchilar o'z faoliyatida foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Sh.T.Xalikova – ps.f.n., dotsent

Sh.R.Samarova – ps.f.n., dotsent.

Chirchiq davlat pedagogika universitetning 2022 yil 2 iyuldagi 11 sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN 978-9943-9418-1-6

© D.U.Raxmanova
© «Fan ziyosi» nashriyoti, 2023

MUNDARIJA

KIRISH	3
I-BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALAR TA'LIMI TIZIMINI TASHKIL ETISHNI NAZARIY ASOSLARI.....	9
1.1. Inklyuziv ta'lim mazmuni va uni tashkil etish.....	9
1.2. Umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar ta'limining pedagogik-psixologik shart-sharoitlari.....	17
1.3. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'limini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	25
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	40
II-BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARI BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS METODLARI.....	42
2.1. Matematika darslarida o'quvchilarning barcha toifalari bilan ishlash metodikasi	42
2.2. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar bilan differensial yondashuv asosida ishlash	51
2.3. O'quvchilarni rag'batlantirishda interfaol usullardan foydalanish.....	61
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	65
III-BOB. INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA FANLARNI O'QITISH JARAYONIGA TATBIQ ETILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR SAMARADORLIGI.....	66
3.1. Tajriba sinov ishlari mazmuni va ularni tashkil etish bosqichlari.....	66
3.2. Tajriba sinov ishlari natijalari va ularning tahlili.....	70
3.3. Inklyuziv ta'limda boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik professiogrammasi.....	75
Uchinchi bob bo'yicha xulosa	85
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	90
ILOVALAR.....	97

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Jahon miqyosida BMTning «Bola huquqlari to'g'risida» Konvensiyasi, «Nogironlar huquqlari haqida»gi Deklaratsiyalari nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga erta uyg'unlashuvi muammosini hal qilish, zamonaviy maxsus ta'limni mazmunini yangilash, innovatsion g'oyalarning tatbiq etilishiga asos bo'lmoqda. Yuneskning ta'limga oid loyihalari mazmunida bolalarni erta sifatli ta'lim bilan qamrab olish vazifalari doirasida qator davlatlarda maxsus qonunlar qabul qilingan. Jumladan, "Individuals with Disabilities Education Act" (AQSHning (IDEA, 1990)), "Inclusive Schooling - Children with Special Educational Needs" (Buyuk Britaniya (2001)) kabi qonun hujjatlari asosida maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya muhitini barcha bolalar uchun moslashtirish va qulaylashtirish, ochiq ta'lim mazmunini joriy etish xizmatlari maqsadli va manzilli amalga oshirilmoqda. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq nuqsonlariga ega bolalar bilan ishlashning korreksion ish tizimini modernizatsiyalash, defektologlar innovatsion faoliyatining metodik yo'nalgan komponentlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Natijada korreksion-pedagogik jarayoni tizimli va bolalar imkoniyatlariga yo'nalgan tarzda tashkil etish jarayoniga mutaxassislarni metodik tayyorlashga erishilmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning imkoniyati cheklangan bola shaxsi rivojlanishiga ta'sirini pedagogik-psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan tadqiq etishda shaxsga yo'naltirilgan hamda rivojlantiruvchi o'yinli texnologiyalardan foydalanishga ustuvorlik berilgan.

Prezidentimizning "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish. Nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash. Nogironligi

bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish. Tibbiy-mehnat ekspertizasi va nogironlikni belgilashning shaffof, zamonaviy uslub va mezonlarini joriy etish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish darajasi va sifatini oshirish. Nogironligi bo'lgan shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo'lishi, shahar yo'lovchi transporti, ijtimoiy va boshqa infratuzilma obyektlaridan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish. Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish. Nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tish"¹ kabi muhim maqsadlar belgilangan. Mamlakatimizda ma'naviy tarbiya, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki inson jamiyatning tayanchidir. Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g'oyatda mas'uliyatli vazifa, shu bilan birga, insonparvar siyosat natijasidir. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy himoyalash, ta'lim olish barcha qatori umumta'lim muassasalarida teng huquqli sharoitda ta'lim-tarbiya olish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko'zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e'tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. 2017 yil 1 avgustdagi "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi nogironlarni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash, ularni to'laqonli ta'lim olishi, jamiyat tomonidan qo'llab – quvvatlanishi, ularni sog'lomlar qatorida jamiyatga uyg'unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni takomillashtirishni ko'zda tutadi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. T.: 2022 yil PF-60-son.

Dunyo mamlakatlarida nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash, ularning jamiyatda o'ziga munosib o'rinni egallashlariga ko'maklashish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi, "Ta'lim hamma uchun" reja-dasturi to'g'risidagi Dakar deklaratsiyasi va boshqa xalqaro miqyosda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi nogiron bolalarni himoyalashga qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayoniga inklyuziv yondashuvni samarali joriy etish ham shular jumlasidandir. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish umumiy o'qitish tizimi bilan inklyuziv ta'limni integratsiyalash, o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotga oid chuqur o'zgarishlar kundalik turmushimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan birga, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarish jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Bu sayyoramiz aholisining o'ndan bir qismini tashkil etadi. Umumjahon sog'liqni ekologik saqlash tashkiloti ma'lumotlari dunyoda bunday kishilar soni 13% ga yaqinligidan dalolat beradi. Shundan 3% intellektida kamchiligi bo'lgan bolalar, 10% turli ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bolalardir. Mustaqil O'zbekistonimizda nogironlar bolalikdan ijtimoiy himoya qilib kelinmoqda.

Umumjahon miqyosida alohida e'tiborga muhtoj bolalarning ruhiy holatini inobatga olgan holda psixologik korreksiyalash metodlari, oila, jamoa va guruhlarda insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish, texnologik ko'maklashuvchi vositalar imkoniyatlarini oshirish borasida samarali ilmiy, ilmiy-texnik, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda. Umumiy o'qitish tizimida inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik jihatlari, nogironligi bo'lgan bolalarning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish, ularning huquqiy tengligi sharoitini yaratish, jamiyat a'zosi sifatidagi o'rnini mustahkamlashga oid muammolar bu izlanishlarning asosini tashkil etib, ular nogiron bolalarning individual xususiyatlari va adaptiv imkoniyatlarini inobatga olish, ijtimoiy moslashuvini

texnologik ta'minlash hamda qo'llab-quvvatlash o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik tizimini takomillashtirishda alohida o'rin egallamoqda.

Tadqiqot obyekti. Umumta'lim maktab(Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani 222-maktab,Chirchiq shahridagi 15-maktab)lari boshlang'ich sinf o'qituvchilari va inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'quvchilar

Tadqiqot predmeti. Inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitishning mazmuni, usul, shakl va vositalari.

Tadqiqotning maqsadi: Inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

- muammoga oid milliy va xorijiy tadqiqotlar ,metodik,pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;

- inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitishning o'ziga xos tamoyillari va omillarini aniqlash;

- inklyuziv sinf o'quvchilarining fanlardan o'zlashtirish darajalarini o'rganish;

- inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

- **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- 1.Inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitishning o'ziga xos pedagogik-psixologik va tashkiliy tomonlari milliy xorijiy tajribalarni tahlil etish orqali ilmiy asoslandi.

- 2. Inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitishning o'ziga xos tamoyillari va omillarni aniqlandi.

- 3. Inklyuziv sinf o'quvchilarining fanlardan o'zlashtirish darajalarini o'rganish metodikalarini samaradorligi o'rganildi;

- 4. Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik professiogrammasi yaratildi, tegishli inklyuziv ta'lim oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

Boshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik jihatlarini, nogironligi bo'lgan bolalarning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish, ularning huquqiy tengligi sharoitini yaratish, jamiyat a'zosi sifatidagi o'rnini mustahkamlashga oid muammolar samarali hal bo'ladi:

Agar boshlang'ich sinf o'qituvchilari inklyuziv ta'lim bo'yicha bilim,malaka,ko'nikmalari mavjud bo'lsa;

Agar boshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitishning o'ziga xos tamoyillari va omillarini hisobga olinsa;

Inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitishga oid metodik tavsiyalarga izchil amal qilinsa.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Ta'lim muassasalarida alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish,oilada nogironligi bo'lgan farzandni tarbiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlari,ularning nuqsonlarini korreksiyalash,shuningdek,nutqiy kamchiligi sabablarini o'rganish va oqibatlarini bartaraf etish muammolari,ularni kasb-hunarga yo'naltirish masalalari P.Jo'rayev, Sh.Qurbonov, G'.Shomurodov, L.Mo'minova, H.Kalbayeva, L.Nurmuhammedova, P.Shomahmudova, Z.N. Mamaradjabova, P.M. Pulatova, X.M. Pulatov, L. SH. Nurmuxamedova, Z.M.Axmedova, SH.M. Amirsaidova, D.A. Nurkeldieva, M.P. Xamidova, M.Xakimova, F.Qodirova, D.Nazarova, G.Abdullaeva, S.Achilova kabi olimlar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan.

MDH a'zo mamlakatlar olimlari tomonidan nogironligi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi,ularning aqliy, pedagogik va psixologik xususiyatlari,mavjud nuqsonlarni korreksiyalash hamda inklyuziv ta'lim muammolari I.V.Skrebeva, I.R.Sushkov, I.I.Mamaychuk, D.Mitchell, L.P.Koskovoy, D.Lich, O.S.Nikolyskaya, V.S.Manova-Tomova, Y.S.Alyoshina, L.M.Krijovskaya, V.S.Muxina, S.V.Alexina, S.I.Anufriyev, A.Bodalyov, E.R.Bauskayalar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy davlatlarda ham inklyuziv ta'lim-tarbiyani rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha bir qancha izlanishlar, ilmiy asoslangan tadqiqot ishlari bajarilgan. Ture Yonsson, Luis Kallon, Velma Dione, N.K. Yongira, K. Maylz, K. Xorton, R. Fuller va Devid Bayn kabi olimlar olib borgan ilmiy tadqiqotlarning yutuqlari va ilgari surgan g'oyalari amaliyotga tadbiq etilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy, metodik, pedagogik adabiyotlar, manbalar, DTS, o'quv reja, fan dasturlari, darsliklarni, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov, natijalarni matematik statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: tadqiqotda qo'lga kiritilgan ilmiy xulosa va tavsiyalardan (joylarda tashkil etilgan) Umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarda ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi o'qituvchilar, shuningdek maktab ta'lim sohasida, psixolog va defektolog xodimlari inklyuziv ta'lim faoliyatida foydalanish mumkin. Nazariy xulosalardan "Bola psixologiyasi", "Maxsus psixologiya" "Maxsus pedagogika" kurslarini o'qitishda, ota ona va yoshlarga amaliy maslahat berishda keng jamoatchilik, aholi o'rtasida ijtimoiy psixologik va inklyuziv ta'limni targ'ib qilishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari tajriba natijalari inklyuziv ta'lim ishlarining samaradorligi oshirish, alohida ehtiyojmand bolalarni inklyuziv ta'lim qamrovini oshirish hamda muassasa, oila, mahalla hamkorligini mustahkamlash amaliyotida o'z samarasini beradi.

Tadqiqotning tarkibiy qismi: monografiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALAR TA'LIMI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

§ 1.1. Inklyuziv ta'lim mazmuni va uni tashkil etish

Ma'lumki, 2020 yil 23 sentabr kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga ilk bora «inklyuziv ta'lim» tushunchasi kiritildi. Nogironlik endilikda tibbiy masala emas, balki birinchi navbatda inson huquqlari masalasi deya qonuniy e'tirof etildi. Shuni ta'kidlash joizki, nogironligi bo'lgan bolalar uchun to'siqlardan xoli va inklyuziv muhitni yaratish orqali ularning to'liq va sifatli ta'lim olishini ta'minlash – bola huquqlarini amalga oshirishning samarali yo'llaridan biridir» deb ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Binobarin huquq va majburiyatlar birligi subektning o'z manfaatlarini bilan jamiyatning ijtimoiy manfaatlar o'rtasida muvozanat yaratadi²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konseptsiyasi va uni 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi” tasdiqlandi. Qarorga muvofiq, 2021/2022 o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inklyuziv ta'lim joriy qilinishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan maktabda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochilishi, Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar, maktablarda

² O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi T.: "O'zbekiston", 1993-46 b .

inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan "Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi" tashkil etilishi belgilandi.

Keyingi o'quv yilida alohida ta'lim ehtiyoji bor bolalarning 24 foizi, 2025 yilgacha esa 40 foizi umumta'lim maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish, ota-onalarga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qishi mumkinligi haqida ma'lumotlar berish, umumta'lim maktablari o'qituvchilarining inklyuziv ta'lim muhitida faoliyat ko'rsatishlariga, me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlari qatorida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolaga to'g'ri yondoshishi uchun maxsus tayyorgarlik ishlarini olib borish zarur.

Bugungi kunda nogironligi bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Ushbu ishlarni tashkil qilishda maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni inklyuziv ta'limga joriy etilishi bo'yicha dasturlarni tahlil ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, ta'lim klasteri bo'yicha ishlarni rejalashtirish, nogironligi bo'lgan bolalarda sog'lom turmush tarziga moslashtirish metodlaridan foydalanilgan holda ish tizimi belgilanadi.

Inklyuziv ta'lim bu- davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlarni yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifoda etuvchi ta'lim tizimidir.

Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta'lim

jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli bolalarning ota-onalariga, ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak.

Har bir nutq nuqsonini o'rganishda uning turlari tahlil etiladi. Nutq nuqsonlarni aniqlash, olimlar tomonidan so'nggi yillarda ilmiy ishlarni tahlil etish bo'yicha izlanishlar olib borilgan.

Inklyuziv ta'lim- barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonunining 20-moddasi inklyuziv ta'limga bag'ishlangan bo'lib, "Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi"³.

Bugungi kunda nogironligi bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Ushbu ishlarni tashkil qilishda maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni inklyuziv ta'limga joriy etilishi bo'yicha dasturlarni tahlil ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, ta'lim klasteri bo'yicha ishlarni rejalashtirish, nogironligi bo'lgan bolalarda sog'lom turmush tarziga moslashtirish metodlaridan foydalanilgan holda ish tizimi belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 29-moddasi "Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta'lim olish huquqi kafolatlari" nomlangan bo'lib, unda davlat maxsus pedagogik yondashuvga ehtiyoji bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning belgilangan

³ O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonun.T.: 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son.

ta'lim standartlari va talablari darajasida bilim olishlarini kafolatlovchi zarur mablag'lar ajratadi hamda boshqa choralar ko'radi.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalanish hamda o'z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo'lgan ta'lim olish huquqiga ega⁴.

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning tavsiyasi bo'lgan taqdirda, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogiron bolalarning ota-onalari o'z xohish-istagiga ko'ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim (umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasi turini tanlash huquqiga ega. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda qonunchilik bilan imtiyozlar belgilanishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim – (inklyuziya – inglizcha inclusion-uyg'unlashish) hamkorlikdagi ta'lim bo'lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va samarali ta'lim sifatida tan olingan.

Bizning fikrimizcha inklyuziv ta'lim bu, shunday ta'lim-tarbiya jarayoni-ki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat'iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda, o'z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o'z tengqurlari bilan birga ta'lim olishi demakdir.

Inklyuziv ta'limning maqsadi:

Alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, umumta'lim muassasalarida to'laqonli ta'lim olishlarini ta'minlash, ta'lim muassasalarida har bir bola uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim turlari:

- Maxsus ta'lim- Bolalarning muammolari bo'yicha maxsus tashkil etilgan maktab-internatlari.

- Sanatoriya turidagi maktab internatida.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida qonun.T.: 2008 yil.
O'RQ-139-son

- Inklyuziv integratsion ta'lim. Umumta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi uyg'un ta'lim.

- Uydagi ta'lim. Ta'lim muassasalarida o'qish imkoniyatiga ega bo'lmagan bolalar uchun oilada tashkil etiluvchi ta'lim.

-Muruvvat uylari. Rivojlanishida og'ir nuqsonlarga ega bolalar uchun internat tipida maxsus tashkil etiluvchi ta'lim.

- Davolash-profilaktika muassasalarida statsionar sharoitda.

Inklyuziv ta'lim vazifalari :

-Ta'lim muassasasida ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zarur psixolog-pedagogik,korreksion sharoitlar yaratish,ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

-Maxsus ta'lim muassasasi o'quvchilarini umumta'lim maktablari bilan uyg'unlashtirgan holda faoliyat olib borish yo'li bilan o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

-Jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish,bolaning ehtiyojlarini qondirish,ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

-Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

-Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga muqobil munosabatni shakllantirishdir.

Bola rivojlanishidagi nuqsonlar har xil bo'ladi,ularning ba'zilar batamom bartaraf etiladi,ba'zilar bir qadar tuzatiladi,korreksiyalanadi,bilinmaydigan holga keltiriladi,boshqalari esa kompensatsiyalanadi.Masalan,bola nutqida og'ir nuqsoni bo'lsa, ilk yoshda tog'ri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar ta'sirida uni to'liq bartaraf etish mumkin.Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasi paydo bo'lsa ,uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham

,biroq kamaytirish,ko‘zga ko‘rinmaydigan sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin.

Respublikamizning barcha viloyatlarida zamon talabiga muvofiq alohida yordamga muhtoj bolalarning differensial va integratsiyalashgan,inklyuziv ta’limi barcha yo‘nalishlar bo‘yicha jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda.

Bolalar bir-biriga o‘xshamaydilar. Bir-biriga o‘xshash bo‘lgan bolaning o‘zi mavjud emas.Bolaning yoshlari bir xil bo‘lsada,ular bir-biridan farq qiladi.Ba’zi bolalar injiq,ba’zilari esa,aksincha xushchaqchaq,ba’zilari yaxshi kuylaydi,ba’zilari esa,aksincha ashula ayta olmaydi.

Bola dunyoga kelgan kunlaridan boshlab ko‘radi,eshitadi,biror narsani tekkanini,og‘riq,issiq,hid va ta’mini xis etadi. Tevarak atrofdagi borliqni bilish-sezish va idrok etish ,ya’ni voqelikdagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi. Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida u buyumlarning rangi,shakli,kata-kichikligiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi,tanish ohangni ajratadi va hokazo.Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar:ko‘rish va ko‘zdan kechirish , tinglash va eshitish,buyumlarni tashqi belgilariga qarab ajratish,ko‘zi ko‘rayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobiliyati rivojlanib boradi. Diqqat ,xotira,intilish,qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bola nutqining o‘z vaqtida va tog‘ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir.Nutq ruhiy jarayon:idrok,xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi.Bolalar nutqi rivojlana boshlashi bilan kattalar so‘zlarining tarbiyaviy vosita sifatida roli ortib boradi. Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi.

Bola har kuni ko‘rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga o‘z munosabatini bildiradi,kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo‘layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo‘lgan munosabati-bularning hammasi bola ma’naviy qiyofasining shakllanishiga ta’sir etadi.

Nuqsonlarni tasavvur qilish va idrok etishning oson kechishini anglagan holda ularni ikkita katta guruhga ajratish mumkin.

A. Jismoniy nuqsonlilar;

B. Aqliy nuqsonlilar.

O'z navbatida jismoniy nuqsonlilar ko'rish a'zosi nuqsoniga ko'ra ko'rlar va zaif ko'ruvchilarga, eshitish a'zosida nuqsoni bo'lganlar, ya'ni kar va zaif eshituvchilarga, nutq a'zolarida nuqsoni mavjudlar logopatlar, tayanch harakat tizimida nuqsonlilarga, shuningdek, murakkab nuqsonlilarga ajratiladi. Aqliy nuqsonlilar esa quyidagi turlarga bo'linadi:

Aqli zaiflar;

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar.

Aqli zaiflar o'z navbatida nuqsonning kelib chiqish davriga binoan ikkita toifaga ajratiladi:

a) Homila, tug'ilish va bolada nutq artikulyatsion apparatining shakllanganligiga qadar davr oralig'ida uning bosh miyasi jarohatlanishi natijasida yuzaga keladi. Aqli zaif bolalar fanda oligofrenlar deb nomlanadilar (Aqli kamlik ma'nosida).

b) Bolada nutq paydo bo'lganidan keyingi davr bosqichlarida bosh miyasining zararlanishi, jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan aqli zaiflik demensiya deb yuritiladi. Ammo amaliyotda ko'pincha har ikkala toifadagi bolalarni ham aqli zaiflar deb nomlash odat tusiga kirib qolgan.

Aqli zaiflikni darajalariga ko'ra:

— Yengil darajadagi aqli zaiflik (debillar);

— O'rta darajadagi unchalik og'ir bo'lmagan aqli zaiflik (imbesillar);

— Og'ir darajadagi aqli zaiflik (idiotlar) deb tabaqalanadi.

Shu davrga qadar ham bu nuqsonlar to'g'risida turli xil ta'riflar, tushunchalar, qarashlar va munosabatlar mavjud bo'lgan. XX asrning birinchi va ikkinchi yarmidan boshlab, psixologiya, tibbiyot, fiziologiya va xususan, maxsus psixologiya sohalarida olamshumul tadqiqotlar amalga oshirildi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan kontingentlarning fikr yuritish jarayonlari genezisi

yuzasidan olingan ma'lumotlar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.[40]

Alohida yordamga muhtoj bolalar me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi kerak. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlargina uni alohida yordamga muhtoj bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog'i eshitsayu, bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, u maktab tengdoshlari qatori o'zlashtiradigan bo'lsa, u alohida yordamga muhtoj bolalar toifasiga kirmaydi.

Maxsus pedagogika-jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiligi bor bolalarning rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fandır. Korreksiya so'zi lotincha-tuzatish, bartaraf etish degan so'zlardan olingan.

F.Qodirova fikricha "Bugungi kunda amaliyot kar, zaif eshituvchi bolalar qachonki, ularning "tili" bilan muloqot qilish maydoni keng bo'lgan hamda defektologlar yordamida tashkil etiladigan maktab ta'limi davrida har tomonlama rivojlanishning keng imkoniyatlariga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Kar, zaif eshituvchi bolalarda aynan nutqiy zaxiraning yetarli emasligi, ijtimoiylashish motivatsiyasining sustligi, ta'lim jarayonida ularning passiv ishtirokchi sifatida qolib ketayotganligi maxsus pedagogika va xususiy metodika fanlarida keskin o'zgarishlar va samarali metodik tavsiyalar yaratish lozimligini ko'rsatdi. Shu bois, kar va zaif eshituvchi bolalarda sog'lom insonlar orasida muvaffaqiyatli yashab qolish uchun zarur ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish imkoniyati keng bo'lgan pedagogik jarayonni, ta'lim mazmunini takomillashtirish, jahon miqyosida qo'llanilib kelinayotgan samarali tendentsiyalar, texnologiyalarni amaliyotga joriy etish lozim" [17].

Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasi paydo bo'lsa ,uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham, biroq kamaytirish, ko'zga ko'rinmaydigan sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin. Maxsus pedagogika

amaliyotida yana shunday toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar kuzatiladiki, ulardagi nuqsonni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo'lmaydi, masalan tug'ma ko'rlik yoki karlikning ayrim turlari shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasi esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensatsiyalash, o'rni bosish mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyatida muammosi bo'lgan bolalar esa imo-ishora, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Respublikamizning barcha viloyatlarida zamon talabiga muvofiq alohida yordamga muhtoj bolalarning differensial va integratsiyalashgan, inklyuziv ta'limi barcha yo'nalishlar bo'yicha jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Korreksion pedagogika rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

- surdopedagogika (lotincha surdus-kar, gung so'zidan olingan) eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

- tiflopedagogika (yunon tiflos – ko'r, so'qir so'zidan olingan) – ko'zi ojiz bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

- oligofrenopedagogika (yunoncha oligos-kam, fren – aql), so'zlaridan olingan, -aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;

- logopediya (yunoncha logos – so'z, padeo-tarbiya so'zlaridan olingan) - og'ir nutq nuqsonlarini o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan.

“Bola huquqlarining kafolatlari tog'risida”gi Qonunga rioya etilishini ta'minlash uchun uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi barcha mutaxassislar alohida yordamga muhtoj kishilar haqida tushunchaga ega bo'lib, ularga ta'lim-tarbiya jarayonida qulay shart-sharoitlar yaratib, kerak bo'lsa, individuallashtirgan dasturlar asosida integratsiyalashgan inklyuziv sharoitda

me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida hamma qatori ta'lim olish imkoniyatlarini yoki maxsus muassasalarda ta'lim olishiga yordam berishi zarur. Buning uchun har bir pedagog korreksion pedagogika fanining asoslarini egallagan bo'lishi kerak.

§ 1.2 Umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar ta'limining pedagogik-psixologik xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020 yil 6-noyabrdagi qaroriga asosan "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi" faoliyatini yana-da takomillashtirish bo'yicha Hukumat qarorini qabul qilish belgilangan.

Shuningdek Prezidentimizning "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorida O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi qoshida uning belgilangan shtat birliklari doirasida «Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi» tashkil etilishi vazifa qilib belgilangan. Inklyuziv ta'lim laboratoriyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratish, inklyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish;
- inklyuziv ta'limning metodik ta'minotini (dasturlar, rahbar, pedagog va mutaxassislariga metodik tavsiyalar va boshqalarni) ishlab chiqish hamda takomillashtirib borish;
- inklyuziv ta'limning barcha sub'ektlari uchun psixologik-pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish;


- inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish;
- inklyuziv ta'lim bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va amaliyotga tatbiq etish;
- inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalari, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar to'g'risida ma'lumotlar bazasini yaratish va uni doimiy yangilab borish;
- inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy konferentsiyalar va seminarlarni tashkil etish va o'tkazish [9].

Qarorda xalq ta'limi tizimida kasb-hunarga yo'naltirish, ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmini yana-da takomillashtirish, kasb-hunarga yo'naltirishning ilg'or tajribalarga asoslangan zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish, inklyuziv ta'limni joriy etish, rivojlantirish hamda bolalar, ota-onalar, pedagog xodimlar va jamoatchilikni ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash orqali bolalar uchun xavfsiz inklyuziv o'quv muhitini yaratish ko'zda tutilgan.

Korreksiyalovchi (kamchiliklarini tuzatish) ta'lim mazmunini o'quvchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda individual bo'lishini ta'minlash orqali har bir o'quvchi inklyuziv ta'lim sharoitida erkin his qiladigan darajaga yetkazilishi zarur. Buning uchun ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha pedagog xodimlar, tarbiyachilar oldiga yagona talab qo'yiladi. Bunda o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga ya'ni oilada, mahallada, jamoat joylarida, umuman olganda hayotda qo'llaniladigan shaxslararo munosabatlardagi barcha kommunikativ ko'nikma va malakalar berilishini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi.

Inklyuziv ta'lim tizimini quyidagi tamoyillari mavjud



Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud.

Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminasiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.

O'tgan yigirma yil davomida imkoniyati cheklangan o'quvchilarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Ammo inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali hamon imkoniyati cheklangan o'quvchilar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.

Bog'lanish- bu so'zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Albatta imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni quyidagi ikkita omil yordamida ifodalanadi:

A) Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo'lishi kerak.

B) Inklyuziv ta'lim tizimidagi vazifalar mahalliy ta'lim muassasalariga javobgarlik, boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integratsiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish, ularga

xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Bu ularning shaxsiy sifatlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nogiron bolaning normal rivojlanishiga halaqit berish, nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.

Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzishni talab etadi.

Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta-maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan hamda o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.

Malakaviylik tamoyili.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari

inklyuziv sinf o'qituvchisi defektologiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.[74]

2005 yilning 19 sentabr kuni XTVning 234-sonli buyrug'i bilan «Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom»i tasdiqlandi. Ushbu Nizomda inklyuziv ta'lim tizimining maqsad, vazifalari belgilab berilgan. Unda qayd qilinishicha, imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar quyidagi tartibda inklyuziv ta'limga qamrab olinadi:

- ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;
- harakat muvozanati buzilgan;
- o'z-o'ziga xizmat qila oladigan debillik darajasidagi oligofren bolalar va o'smirlar;
- nutqida nuqsoni bo'lgan (muloqoti cheklanmaydigan darajadagi) bolalar;
- zaif ko'ruvchi bolalar va o'smirlar;
- zaif eshituvchi va kech (5 yoshdan keyin)kar bo'lgan bolalar;
- ko'zi ojiz (Brayl yozuvi va o'qishni egallagan) bolalar va o'smirlar;
- kar (muloqot darajasida nutqi bo'lgan, o'qish va yozishna egallagan) bolalar va o'smirlar [75; 8 -bet].

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim tarbiyasida teng huquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish ya'ni mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umum ta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor.

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, imkoniyati cheklangan o'quvchilar ijtimoiy tomondan himoyalanaдилar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini imkoniyati cheklangan o'quvchilarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, imkoniyati cheklangan o'quvchilar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Bu ishlarni muvaffaqiyati har bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlarini talab qilinadi va majburiy hisoblanadi [26].

Inklyuziv ta'limga o'tishda maktab va undagi sinf xonalariga alohida talablar qo'yiladi. Chunki barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari sog'lom bolalarni ta'lim olishiga mo'ljallangan. Shuning uchun harakati cheklangan, zaif ko'ruvchi, ko'zi ojiz, kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus qurilmalar, moslamalar, darslik va o'quv materiallari, jihozlar bo'lishi talab etiladi. Inklyuziv sinflarda umumta'lim maktablarining barcha o'qituvchilari faoliyat olib boradi, faqat sinfdagi imkoniyati cheklangan bolalar bilan maxsus ta'lim mutaxassislari (surdopedagog, tiflopedagog, oligofrenopedagog) maxsus o'qituvchi sifatida hamkorlikda ish olib boradi. Inklyuziv ta'lim umumta'lim dasturlari asosida har bir yo'nalishdagi (ko'rishdagi, eshitishdagi, aqliy faoliyatida muammosi mavjud) bolalarga yo'naltirilgan, moslashtirilgan o'quv dasturlari asosida individual yondashuv orqali o'qitiladi [87]. Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan

bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Istiqboldagi rejalar tanlab olingan mintaqalarda inklyuziv ta'lim uslublarini tajriba sifatida joriy etish uchun Xalq ta'limi vazirligiga texnik yordam ko'rsatish;

maktabga qatnamaydigan yoki shunday xatarga uchrayotgan bolalarga alohida e'tibor qaratadigan viloyat bolalar rivojlanish markazlarida tegishli o'quv dasturlarini joriy etish; o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan va imkoniyatlari cheklangan bolalar oddiy maktablarda bilim olishlari mumkin bo'lishiga qaratilgan alohida dasturlarni «Speshial Olimpiks» ko'magida O'zbekistonda tajriba sifatida joriy etish.[88]. Imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan maktablar Xalq ta'limi vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan mintaqadagi jismoniy va psixik rivojlanishda imkoniyati cheklangan, maxsus sharoitlarda ta'lim-tarbiya olishga muhtoj bolalarning mavjud kontingentini birgalikda o'rganib chiqish yakunlari bo'yicha tashkil etiladi. Ushbu maktablarni tashkil etish tegishli hududda oxirgi 5 yilda 3 yoshdan 16 yoshgacha bolalar o'rtasida tegishli kasalliklarning ko'payganligini ko'rsatadigan rasmiy statistika ma'lumotlari bilan asoslanishi kerak. Imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan maktablar o'quvchilar soni 250 nafardan oshmasligi kerak. Bolalarni imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan maktablarga yuborish xalq ta'limi boshqarmalari tomonidan, xalq ta'limi boshqarmalari huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra, ota-onalar roziligiga ko'ra amalga oshiriladi.[89]

§ 1.3. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'limini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni mas'uliyatni his yetadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga katta umid bilan qaraladi.

Bolalarni muhofaza qilish maqsadida BMT 1989 yilda "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilindi. Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya bolalarning huquqlarini hamma joyda amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan inson huquqlari borasidagi xalqaro shartnoma hisoblanadi. U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan 191 mamlakat ko'ngilli tarzda zimmlariga —Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya qoidalarini ma'muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tatbiq etish majburiyatini oldilar.

Inklyuziv ta'lim sharoitida psixologik-pedagogik yordam individual va frontal ravishda tashkil etiladi. Ta'lim tashkilotida nogiron bolani individual qo'llab-quvvatlash dasturini yaratish va amalga oshirish algoritmini ishlab chiqish mumkin.

Bunda quyidagilar ko'zda tutiladi .

- 1) Kirish diagnostikasini amalga oshirish.
- 2) Psixologik-tibbiy-pedagogik kengashni tashkil etish.
- 3) Individual ta'lim yo'nalishini tuzish.
- 4) Moslashtirilgan ta'lim dasturini ishlab chiqish.
- 5) Individual ta'lim yo'nalishini amalga oshirish.
- 6) Takroriy diagnostika (dinamik diagnostika) o'tkazish.
- 7) Qo'llab-quvvatlash natijalarini tahlil qilish va baholash.
- 8) Keyingi qo'llab-quvvatlash strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish.

Inklyuziv amaliyot kontekstida nogiron bolaning muammosini aniqlash va uni hal qilishning eng samarali usullarini topish jarayoni sifatida psixologik-pedagogik yordam dasturlarini modellashtirish imkoniyatidan foydalanish dolzarbdir. Modellashtirish sizga bolaning yordamiga muhtoj bo'lgan mutaxassislarning ishtiroki va o'zaro ta'siri darajasini tez va moslashuvchan tarzda tartibga solish imkonini beradi. Inklyuziv amaliyotning yo'nalishlaridan

biri nogironligi bo'lgan oilalarni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlashdir. Shubhasiz, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolasi bo'lgan har qanday oila hamroh bo'lishi kerak. "Maxsus" bolaning paydo bo'lishidan boshlab, uning ota-onasi doimiy zo'riqishda bo'lib, bu ko'pincha oilaviy nogironlik fenomenining shakllanishiga va ijtimoiy-madaniy moslashishda qo'shimcha qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Qo'llab-quvvatlash dasturini rejalashtirishda nogiron bolaning oilasining xususiyatlarini, uning ta'lim salohiyatini hisobga olish kerak.

Integratsiyalashgan ta'limning uchta modeli mavjud.

- to'liq va kombinatsiyalangan integratsiya, bu erda bir guruhda ta'lim dasturlarini o'zlashtirib, nogiron bolalar birgalikda o'qiydilar.

- Qisman integratsiya u yoki bu sabablarga ko'ra ta'lim standartini o'zlashtira olmaydigan bolalarga ko'rsatiladi, shuning uchun ular kunning bir qismini guruhga qo'shadilar.

- Vaqtinchalik integratsiya har oyda kamida ikki marta turli xil ta'lim tadbirlarini o'tkazish uchun kompensatsiya guruhining barcha o'quvchilarini odatda rivojlanayotgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan birlashtirishni o'z ichiga oladi.

Inklyuzivlik sog'lom bolalarda tengdoshlarining aqliy nuqsonlariga bag'ri kenglik, o'zaro yordam tuyg'usi va hamkorlik qilish istagini rivojlantirishga yordam beradi. Inklyuzivlik alohida ta'limga muhtoj bolalarda tengdoshlariga ijobiy munosabat va adekvat ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi, shuningdek, ta'lim va tarbiyada rivojlanish potentsialini to'liqroq amalga oshiradi. Inklyuziv ta'lim muayyan ta'lim olish va yaratish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashni amalga oshiradi [zarur sharoitlar](#) barcha bolalar uchun ta'lim muvaffaqiyati uchun.



Shu munosabat bilan psixologik-pedagogik diagnostika alohida rol o'ynaydi, bu quyidagilarni ta'minlashni o'z ichiga oladi:

- nogiron bolalarni o'z vaqtida aniqlash;
- aqliy rivojlanishidagi kamchiliklar tufayli nogiron bolalarning alohida ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash;
- optimal pedagogik marshrutni aniqlash;
- nogiron bolalarga individual yo'naltirilgan psixologik-tibbiy-pedagogik yordamni amalga oshirish, bunda bolalarning psixofizik rivojlanishining xususiyatlarini va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda (MPKga muvofiq);
- tuzatish ishlarini rejalashtirish, tuzatish ishlari dasturlarini ishlab chiqish;
- rivojlanish dinamikasini va tuzatish ishlarining samaradorligini baholash;
- bolaning ota-onasiga maslahat berish.

Inklyuziv ta'limni amalga oshirishda ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari.

Ta'lim muassasasining inklyuziv amaliyotni rivojlantirish yo'nalishidagi samaradorligiga ko'plab omillar, shu jumladan o'qituvchilar, tor mutaxassislar va ota-onalarning barcha fanlararo jamoasining samarali faoliyati ta'sir qiladi.

Inklyuziv ta'limni amalga oshiruvchi muassasa faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- inklyuziv ta'lim jarayoniga kiritilgan barcha bolalar rivojlanishda (ayniqsa, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda) ijobiy dinamikani ko'rsatadi, bolalar guruhi tomonidan moslashtiriladi va qabul qilinadi, xohish bilan qatnashadi.

- ta'lim dasturini o'zlashtirishda yordam va yordam olish;

- nogiron bolalarning ota-onalari o'z farzandining rivojlanish istiqbollarini ham, bolani ta'lim muhitiga jalb qilish jarayonida ular oldida turgan dolzarb vazifa va mas'uliyatni ham tushunishlari;

- psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash mutaxassislari psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning eng samarali innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda nogiron bolalar va ularning tengdoshlarini ijtimoiy moslashtirish va rivojlantirish vazifalariga inklyuziv yondashuvlarni amalga oshirishda ishtirok etadilar; o'z kasbiy faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirishda kollegial qarorlar va yondashuvlarga tayangan holda fanlararo jamoada harakat qilish; ota-onalar, o'qituvchilar, o'qituvchilar bilan samarali hamkorlik qilish.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, inklyuziya integratsiyadan ko'proq narsadir. Bu nafaqat ta'limga, balki istisnosiz har bir insonning hayotiga qo'shilish, bu har bir insonning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olish, bu farqlarni tan olish, bu doimiy qo'llab-quvvatlash va o'zgarishlar orqali samarali ta'lim olish imkoniyatidir.

Har bir bola o'zining shaxsiy xususiyatlariga ko'ra o'z darajasida maktab ta'limiga psixologik tayyorlanish imkoniyatiga ega. Dunyomizda ta'limga yondashuvlar, umuman, ijtimoiy-madaniy siyosat tubdan o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlar inklyuziv ta'lim" tushunchasini o'z ichiga oladi. Jamiyatni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish yo'nalishidagi ijtimoiy siyosatni faollashtirish, milliy ta'lim tizimini rivojlantirish imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashni tashkil etish, mazmuni va usullarini takomillashtirish yo'llarini izlashni belgilab beradi. Shunday qilib, o'sib borayotgan shaxsning o'ziga xosligi, uning rivojlanish xususiyatlari va sog'lig'i darajasidan qat'i nazar, birinchi o'ringa chiqadi. Aynan insonparvarlashtirish g'oyalari "Ta'lim

to'g'risida"gi qonunda bolaning va uning ota-onasining ta'lim shakli va ta'lim muassasini mustaqil belgilash huquqi to'g'risidagi nizomning paydo bo'lishiga olib keldi. Iqtidorli bolalar ham, imkoniyati cheklangan bolalar ham - hamma tegishli darajadagi ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Nogiron bolani inklyuziya nuqtai nazaridan psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayoni turli xil profil mutaxassisleri, o'qituvchilar va "maxsus" bolaning oilasi o'rtasidagi yaqin motivatsiyalangan o'zaro munosabatlarga asoslangan murakkab ko'p bosqichli dinamik jarayondir. Ushbu turdagi qo'llab-quvvatlashni ta'lim tashkiloti xodimlarining nogiron o'quvchilarga quyidagilar bilan bog'liq shaxsiy muammolarini hal qilishda profilaktik va tezkor yordam ko'rsatishga qaratilgan faoliyati tizimi sifatida ko'rib chiqish mumkin: jismoniy va ruhiy salomatlik; ta'lim, ta'lim va rivojlanishda muvaffaqiyat qozonish; samarali shaxslararo muloqot; hayot va kasbiy shaxs.

Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya kompleks va universal xarakterda bo'lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni ta'min etadigan yagona konvensiyadir. Bu Konvensiya qat'iy faoliyat ko'rsatadi. Barcha hukumatlarni hamma bolalalarning huquqlarini himoya etish uchun sa'yi harakatlar qabul etishga chaqiradi. Shuningdek bu Konvensiya yaxlitdir, chunki unda ta'kidlanishicha, barcha huquqlar muhim, mushtarak, bir-birlariga bog'liq va tengdir.

Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani o'rganish jarayonida bu hujjatning ko'plab bandlarining mazmuni va mohiyati xususida D..Nazarova, R.A.Suleymenova va G.A.Hakimjonovalar to'xtalib o'tganlar [51;47-bet].

Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya barcha bolalarning huquqlarini himoya qiladi. Mazkur Konvensiyaning 2-moddasida —Bolalar ularning ota-onalari, boquvchilarining irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli, sog'lig'i, qanday holatda tug'ilganliklari va boshqa holatlaridan qat'iy nazar kamsitishlarga mahkum etilmasiligi kerak-deb qat'iy belgilangan.

Demak, bu Konvensiyadagi barcha huquqlar maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun ham tegishli bo'lib, ularga barcha bolalar qatori teng munosabatda bo'lish kafolatlanadi. Shunday ekan, —Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim olish huquqini ham kafolatlaydi.

Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi ularni o'qish va yozishga o'rgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko'mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soxa xodimlari hamda nogiron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi masuliyatli ishlar jumlasiga kiradi. Maxsus yordamga muhtoj bolalar asosiy muamolarini ular o'zlari yashab turgan muhitdan, oiladan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi. Jamiyat o'z a'zolariga javobgarlikni o'z bo'yniga olmas ekan, cheklab qo'yilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy integrasiyaga erishish qiyin.

Maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim tarbiyasida teng huquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish ya'ni mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanaдилar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Bu ishlarni muvaffaqiyati har bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan

ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar-o'quvchilarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlarini talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi. Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyat darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-hunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalandilar, ijtimoiy hayotda teng huquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar. Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregatsion-maxsus, yopiq turdagi muassasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi bolalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan juda katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli bolalar ham barcha qatori haq-huquqlarga ega. Tahlil shuni ko'rsatadiki, taxminan 10-15% bolalar maxsus ta'limga muhtoj ekanligi aniqlandi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etishga bo'lgan ehtiyoj bu shunda namoyon bo'ladiki, ta'lim tizimidan butunlay chetda qolib ketayotgan maxsus ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb etish, maxsus muassasalarga borishga yashash joyi juda uzoqda bo'lganligi yoki moddiy mablag'ning yetishmasligi yoki ota-onalarning o'z farzandini maxsus muassasaga borishini hohlamasligi oqibatida qiynalayotgan ota-onalalarga ko'mak berish, maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiy jamiyatga erta va to'laqonli moslashtirish, teng huquqlilik masalasini hal etish, kamsitishlarni oldini olishdadir.

Inklyuziv ta'lim ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga

qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi. Inklyuziv ta'lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi.

Jamiyatda nogironlarga nisbatan yangilash fikr va munosabat juda yuqoridadir. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim tarbiya berilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarni anglab, kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi.

O'zbekiston respublikasi konstitusiyasining moddasiga asosan barcha bolalar umumta'lim jarayoniga kiritish va ijtimoiy hayotga moslashtirish lozimligi belgilangan;

- har bir bola o'zining qiziqishi qobiliyati, va ehtiyojiga ko'ra mos ravishda bilim olishi huquqiga ega;

- ta'lim dasturini ishlab chiqishda va amalga oshirishda o'ziga xoslik va ehtiyojlarning turli-tumanligini nazarda tutish;

- har bir bola tengdoshlar qatori bilim olish huquqiga ega bo'lishi;

- bolani ta'limga emas, balki ta'limni bolani ehtiyojiga ko'ra tashkil etilishi;

- bolaning muhtojligi va imkoniyatini e'tiborga olgan holda ta'lim metodologiyasini, o'quv rejalarni ixcham bo'lishini qo'llab-quvvatlash hamda baholash;

- inklyuziv ta'lim muammoni bolada emas, tizimda ekanligini aniqlaydi,

- bolaga qulay shart-sharoit yaratishni ta'minlaydi;

- bolani shaxsiy ehtiyojiga qarab korreksion-pedagogik va ijtimoiy yordamni tashkil qiladi va hokazo.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim olishini yanada takomillashtirish, amaliyotda uchraydigan muammolarning yechimlarini davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida hal qilish masalalari yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- korreksion ta'lim strukturasini sifat jihatdan yangilash;
 - respublikaning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich to'liq integrasiyasiga amal qilish;
 - davlat normativ hujjatlariga inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha qo'shimchalar kiritish yoki tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash;
 - binoni ularga mos ravishda rekonstruksiya qilish;
 - umumta'lim tizimida ta'lim olayotgan maxsus ehtiyojli bolalar uchun zaruriy moddiy texnik ba'zani yaratish;
 - inklyuziv ta'limni tashabbuskorlik mehr-muruvvat tarzida tashkil etish;
 - maktabning ish faoliyatiga inklyuziv ta'limni amalga oshirish borasida o'zgarishlar kiritish;
 - umumta'lim muassasa pedagoglarini inklyuziv ta'lim bo'yicha qayta tayyorlash;
 - barcha pedagogika oliygohlarida va o'rta maxsus o'quv yurtlarida korreksion pedagogik kurslarni kiritilishi;
- Davlat ta'lim talablari va dasturlarni imkoniyati cheklangan bolaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirishirilgan, ishlab chiqish;
- umumta'lim, maxsus maktab pedagoglari, ota-onalar uchun o'quv metodik va ilmiy ommabop, ixcham turdagi o'quv adabiyotlar va individual dasturlar yaratish;
 - nogiron bolani ilk yoshidan tashxis qilish va korreksion pedagogik yordam berish;
 - imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim tizimida umumiy va korreksion ta'lim olishini ilmiy asoslari, standart talablar, o'quv metodik majmualarni yaratish va ta'minlash;

-kasb-hunarga o'rgatish, reabilitasiya qilish va bu ishda oilani bevosita ishtirokini ta'minlash kabi bir qator dolzarb masalalarni kelajakda keng qamrovli bajarish uchun davlat tasarrufida muvofiqlashtiruvchi ilmiy-pedagogik resurs markazi, boshqarma, ilmiy laboratoriyalar tashkil qilish kabi tashkiliy, ilmiy-uslubiy, amaliy ishlarni bajarish inklyuziv ta'limni joriy qilish muvaffaqiyatini ta'minlaydi[6].

O'zbekiston respublikasida nogiron bolalar bilan bog'liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966 yilda boshlangan. Hozirgi kunda O'zbekistonda 250000 ga yaqin turli ko'rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta'lim olish ehtiyojiga ega. Nogiron bolalar uchun ta'lim bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etish lozim. Ko'zi ojizlar, kar va eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar, poliyemiyelit bilan kasallanganlar, aqli zaif bolalar, nutqida nuqsoni bor va soqov bolalarga mo'ljallangan 86 ta maxsus ta'lim va aralash maxsus muassasalar, 982 ta maxsus bolalar bog'chalari mavjud. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi- yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir.

Ushbu sharoitda yordamga muhtoj bolalarni integrasiyalash va reabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv talim turini tanlash lozim.

YUNESKO markazi tomonidan «O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha bog'cha va o'rta maktablarda tajribaviy guruhlar ochish» nomli loyiha qo'llab-quvvatlandi va yaqin kunlarda amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Loyihaning asosiy maqsadi nogiron bolalarda turfa xil malakalarni oshirish va ularning qobiliyatlarini barqaror rivojlantirish uchun sharoit yaratishdan iborat.

Ta'lim tibbiy va ijtimoiy xizmat bilan birgalikda olib boriladi. Oila va mahallada ota-onalar uchun profilaktika hamda reabilitasiya ishlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Ota-onalar nogiron bolalarini tarbiyalash va ularning aqliy rivojlanishlarini rag'batlantirish bo'yicha pedagogik usullar, shuningdek ularning mustaqil bo'lishlari uchun tengdosh sog'lom bolalar bilan muloqot qilishlari bo'yicha o'qitiladilar.

Loyiha to‘qqiz bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqich quyidagi faoliyatlarni qamrab oladi:

1 -bosqich: Respublika ta‘lim markazi qoshidagi Maxsus talim bo‘yicha markazida ko‘chma ta‘lim guruhi tashkil etiladi. Ko‘chma ta‘lim guruhiga texnik yordam ko‘rsatish.

2-bosqich: «Barqaror toraqqiyot uchun inklyuziv ta‘lim» mavzusida milliy anjuman tashkil etish.

3-bosqich: Xalq ta‘limi vazirligining viloyat boshqarmalari bilan hamkorlikda nuqson bilan rivojlanoyotgan bolalarni aniqlash bo‘yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyani tashkil etish. Qo‘shma guruh va sinflarda o‘qitish maqsadida nuqson darajasi me‘yordan og‘ishgan (3-7 yoshdagi) bolalarni aniqlash.

4-bosqich: Uslubiy tavsiyanomalar, qo‘llanmalar va dasturlarni nashr qilish.

5-bosqich: Pedagog-tarbiyachilar, o‘qituvchilar, psixologlarning qo‘shma guruhleri va sinflarda bolalardagi nuqsonlarni tuzatish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish.

6-bosqich: Mavjud bolalar ta‘limi muassasalarida, 2 ta bog‘cha va 2 ta o‘rta maktabda maxsus tajribaviy guruh tashkil etish, Texnik yordam ko‘rsatish.

7-bosqich: Maktabgacha inklyuziv ta‘lim ixtisoslashgan ishlab chiqilgan tajribalarni targ‘ib qilish bo‘yicha ilmiy-uslubiy, amaliy-mintaqaviy anjumanni tashkil etish.

8-bosqich: Monitoring va baholash.

9-bosqich: Moliyaviy hisobot.

Loyiha yordamga muhtoj bolalar, ularning ota-onalari, bog‘cha pedagog-tarbiyachilariga qaratilgan. Loyiha Respublika ta‘lim markazi qoshidagi inklyuziv ta‘lim bo‘yicha manba markazi tomonidan Toshkent Davlat pedagogika universitetining Boshlang‘ich ta‘lim va defektologiya fakulteti, YUNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi va YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston

Milliy komissiyasi, shuningdek boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Loyiha bir yil muddatga mo'ljallangan. Inklyuziv ta'lim bo'yicha manba markazi 2001 yilda O'zbekiston Xalq talimi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazida tashkil etilgan.

Tashkilotning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

-nogiron bolalar ta'limi sohasida faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchi va tarbiyachilar uchun turli anjuman va o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish orqali O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga inklyuziv ta'limni tatbiq etish;

- nogiron bolalar uchun o'quv darsliklarini yaratish;
- nogiron bolalar uchun tajribaviy maydonlar barpo etish;
- bola uchun alohida rivojlantirish rejasini yaratish;
- pedagoglar va ota-onalarga maslahat xizmatini ko'rsatish;
- uslubiy qo'llanmalar, tavsiyanomalar, maxsus maktablarda nogiron bolalar bilan ishlash rejasini yaratish;

- yuridik faoliyat va ijtimoiy muhofaza bo'yicha ma'lumot bilan ta'minlash;
- nogiron bolalar ta'limi sohasida faoliyat yurituvchi jamoat va davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

- nogiron bolalar ta'limi sohasida mavjud kamchiliklarni ommaviy axborot vasitalarida yoritib borish;

- xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;
- maxsus ta'lim sohasidagi tajribalarni tatbiq etish.

Ta'lim sohasida yordamga muhtoj bolalarning tahsil olishlari hamisha jamiyatning diqqat markazida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Shunday ekan, ularga ta'lim beruvchi pedagoglar va mutaxassislar malakasini oshirish, zarur zamonaviy qo'llanmalar, jihozlar bilan ta'minlash ham bu masalani hal qilish uchun qo'yilgan qadamlardan biri hisoblanadi.

BMT tomonidan 1989-yilda qabul qilingan «Bola huquqlari to'g'risidagi»gi Konvensiyasi hamma bolalarni, shu qatori maxsus ehtiyojli bolalar huquqlarini ham himoya qiladi va qo'llab-quvvatlaydi. Aynan 2,23,28,29-moddalarda maxsus ehtiyojli bolalari huquqlari belgilangan.

Bolalar huquqlari To'g'risidagi Konvensiyaning **2-moddasi** maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun asosiy modda hisoblanadi. Unda mazkur Konvensiyadagi har bir modda irqi, dini, millati, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha bolaga tegishliligi haqida ta'kidlanib, barcha huquqlar har bir bola uchun tegishli.

2000 yil O'zbekistonda inklyuziv ta'limning ilk asosi sifatida Respublika ta'lim markazi maxsus ta'lim bo'limi tomonidan O'zbekiston Respublikasida alohida yordamga muhtoj bolalar ochiq ta'lim tizimining rivojlantirish chora-tadbir rejasi ishlab chiqildi. Bu reja dasturda alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimga kiritishning quyidagi tashkiliy asoslari yoritib berildi:

- ommaviy axborot orqali jamiyat ongini inklyuziv ta'limga tayyorlash;
- Respublikadagi alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar haqida axborot banki yaratish;
- barcha turdagi nuqsonli bolalar uchun umumta'lim va yakka tartibda oilalarda o'qitilishi bo'yicha turli xil o'quv metodik adabiyotlar, didaktik vasitalar ishlab chiqish va ta'minlash masalalari qayd qilingan.

Inklyuziv ta'lim konsepsiyasini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuot-axborot vasitalari orqali targ'ibot-tashviqot ishlari bir muncha faollashdi.

Respublika ta'lim markazi YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda 2001 yilda-Inklyuziv ta'lim mavzusida seminar o'tkazib, uning tavsiyalariga asosan Respublika Ta'lim Markazi maxsus ta'lim bo'limi qoshida "Inklyuziv ta'lim resurs markazi" tashkil etildi.

Inklyuziv ta'lim resurs markazining vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- ta'limga jalb etilmagan imkoniyati cheklangan bolalar ta'limini tashkil etishga ko'maklashish;
- inklyuziv sinf va guruhlarni o'quv metodik majmualar bilan ta'minlash
- joylardagi resurs markazlarga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

-imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalariga farzandlarini tarbiyalash, maktabga va ijtimoiy hayotga tayyorlashga oid turli shakldagi tadbirlarni tashkil etish, maslahatlar berish;

-imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga ta'lim berish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini amalga oshirish maqsadida umumta'lim muassasalarida inklyuziv sinflar va guruhlar tashkil etish, ta'limni integrasiya asosida olib borish kabilar.

“Ta'lim hamma uchun” Milliy dastur rejasini ishlab chiqish mavzusida seminar tashkil etdi. Natijada 2003 yil ta'lim hamma uchun dasturining milliy rejasini ishlab chiqildi. Ta'lim hamma uchun dasturining Milliy rejasini 2000 yilgi Dakar shartnomalari doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, siyosatchilar, ta'lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan. “Ta'lim hamma uchun” Milliy harakat rejasini ro'yobga chiqarish bo'yicha yaqin davrlar (2001-2015- yillar)ga mo'ljallangan tadbirlar belgilanib, ta'lim hamma uchun milliy harakati hamda umumiy o'rta ta'lim maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarish siyosati deb nom olgan VI bandining IX yo'nalishi Maxsus ta'limga yo'naltirilgan bo'lib, unda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etishda qonunchilik va me'yoriy bazani takomillashtirish, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim-tarbiya, maxsus ta'lim mazmunini, inklyuziv ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy tomonini takomillashtirish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, inklyuziv ta'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, inklyuziv ta'limni joriy etishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish va boshqa masalalar qayd etilgan.

«Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom»ning 4-bandida inklyuziv ta'lim tizimida o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishning quyidagi masalalari qayd etilgan:

4.1. Inklyuziv ta'limni tashkil etilgan barcha umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona munosabat ruhi shakllanadi.

4.2. Inklyuziv ta'lim amalga oshirilayotgan umumta'lim maktablarida Davlat Ta'lim standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun korreksion dasturlar ham inobatga olinadi, maxsus korreksion ishlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi (maxsus jihozlangan korreksiya xonasi, maxsus infrastruktura).

4.3. Inklyuziv ta'lim amalga oshirilayotgan umumta'lim maktablarida tayyorlov guruh va birinchi sinflarida 35 daqiqa boshqa sinflarada 45 daqiqadan darslar olib boriladi;

4.4. Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baholanadi.

4.5. Ta'lim jarayonida zamonaviy umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda maxsus tamoyillar ham e'tiborga olinadi.

4.6. Korreksion ta'lim o'quvchilarning ehtiyojlariga ko'ra tabaqalashtirilgan holda tashkil etiladi.

4.7. Inklyuziv ta'lim amalga oshirilayotgan umumta'lim maktabiga o'quvchilar ota-onalarning arizasi hamda — Tibbiy-psixologo-pedagogik komissiyalari xulosalari asosida qabul qilinadi va ta'lim muasasalari rahbarlarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

4.8. Inklyuziv ta'lim amalga oshirilayotgan umumta'lim maktabidagi sinflarida integratsiya qilingan o'quvchilar soni 4 nafardan oshirilmaydi hamda o'quvchilar umumiy soni 25 nafargacha belgilanadi. Shuningdek mazkur Nizomda inklyuziv ta'lim ishtirokchilari, inklyuziv ta'lim mutaxassislarining ota-onalar yoki boshqa qonuniy vakillar bilan hamkorligi, xalqaro hamkorlikda qatnashish xususiyatlari batafsil bayon etilgan.

I-BOB BO'YICHA XULOSA

Bugungi kunda nogironligi bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Ushbu ishlarni tashkil qilishda maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni inklyuziv ta'limga joriy etilishi bo'yicha dasturlarni tahlil ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, ta'lim klasteri bo'yicha ishlarni rejalashtirish, nogironligi bo'lgan bolalarda sog'lom turmush tarziga moslashtirish metodlaridan foydalanilgan holda ish tizimi belgilanadi. Inklyuziv ta'lim- barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.

Inklyuziv ta'lim ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi. Inklyuziv ta'lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi.

Ta'lim sohasida yordamga muhtoj bolalarning tahsil olishlari hamisha jamiyatning diqqat markazida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Shunday ekan, ularga ta'lim beruvchi pedagoglar va mutaxassislar malakasini oshirish, zarur zamonaviy qo'llanmalar, jihozlar bilan ta'minlash ham bu masalani hal qilish uchun qo'yilgan qadamlardan biri hisoblanadi. Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregatsion-maxsus, yopiq turdagi muassasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi bolalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan juda katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi.

II-BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARI BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS METODLARI

§ 2.1. Matematika darslarida o'quvchilarning barcha toifalari bilan ishlash metodikasi

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning asosiy poydevori, o'quvchilarning kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishini ta'minlovchi muhim bosqich hisoblanadi. Boshlang'ich matematika kursi, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Matematika so'zi grekcha "mathema" so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi fanlarni bilish demakdir. Matematika fanining o'rganadigan obyekti fazoviy shakllar va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir.[19]

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish bir necha fanlar bilan chambarchas bog'liqdir:

- 1) pedagogika;
- 2) psixologiya;
- 3) o'qitish asosi bo'lgan matematika bilan;
- 4) boshqa o'qitish metodikalarini bilan (ona tili, texnologiya...)

O'qish darsining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izchil o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilgan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan. Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: izohli o'qish nima? Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqazo qilinadi. Badiiy asarni izohli o'qishga yaqin bo'lgan metodlardan biri ijodiy o'qishdir. Atoqli metodist olim N.I.Kudryashov ijodiy o'qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi: a) o'qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o'qishi hamda o'quvchilarning asarni to'g'ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta'minlash maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi: b) o'qituvchining asar o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida tug'ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda

tutuvchi .Ko‘rinadiki, ijodiy o‘qish izohli o‘qishdan farqli o‘laroq, to‘g‘ridan to‘g‘ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. [12]

O‘qish darsining samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim metodlarining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq. Binobarin, fanning o‘zi kabi o‘qish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo‘ladi. Masalan, eski maktablarda o‘qish quruq yod olish metodi asosida o‘rgatilgan bo‘lsa, hozir izchil o‘qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi sozlarga izoh berishga, ma’nosini tushuntirishga, o‘qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o‘qishning ongli bo‘lishiga mutlaqo e’tibor berilgan. Ularda ko‘proq to‘g‘ri talaffuz, qiroat bilan o‘qish, ifodali o‘qish nazarda tutilgan. Hozir maktablarda o‘qish izohli o‘qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug‘iladi: izohli o‘qish nima? Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida asosan she’rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o‘qib o‘rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o‘ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o‘ziga xos usulda o‘qib o‘rganish taqazo qilinadi. Badiiy asarni izohli o‘qishga yaqin bo‘lgan metodlardan biri ijodiy o‘qishdir. Atoqli metodist olim N.I.Kudryashov ijodiy o‘qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi: a) o‘qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o‘qishi hamda o‘quvchilarning asarni to‘g‘ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta’minlash maqsadini ko‘zda tutuvchi so‘zi: b) o‘qituvchining asar o‘qilganidan keyin o‘quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida tug‘ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko‘zda tutuvchi Ko‘rinadiki, ijodiy o‘qish izohli o‘qishdan farqli o‘laroq, to‘g‘ridan to‘g‘ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi.

Didaktik o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik,

bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu metod o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to‘siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta’lim olish motivlarini, ularni turli yo‘nalishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan, didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolly, ishchanlik, va boshqa yo‘nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o‘quvchilardagi tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o‘stirish, til o‘rganish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o‘yinlar nazariyasiga ko‘ra, mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlarga ajratiladi. Didaktik o‘yin turlarini tanlashda, quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi:

- ishtirokchilarning tarkibi bo‘yicha, ya’ni o‘g‘il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o‘yinlar;
- ishtirokchilarning soni bo‘yicha – yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo jamoasi va ommaviy tarzda o‘yinlar;
- o‘yin jarayoni bo‘yicha – fikrlash, o‘ylash, topag‘onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan;
- vaqt me‘yori bo‘yicha – dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi, o‘yin maqsadiga erishguncha, g‘oliblar aniqlanguncha davom etadigan o‘yinlar.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, ta’lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o‘yinlar o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita sanaladi. Unga dam olish yoki vaqt o‘tkazish vositasi emas, balki ta’lim beruvchi faoliyat sifatida qarash lozim. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limning 1-4

sinflari bola hayotida muhim davrni tashkil qilib, o'quvchining keyingi davrdagi o'qish jarayoniga bo'lgan tasavvurida eng ahamiyatli davrdir. Dars mashg'ulotlari vaqtida har bir o'qituvchi o'z o'quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolaning o'qish, o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

6-10 yoshli bolalarning fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida mas'ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu sababli boshlang'ich ta'lim metodikasining vazifalaridan biri o'qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta'minlashda o'qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta'sirlarini jadallashtirishdan iborat.

Matematikadan boshlang'ich ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o'qitish nazariyasini (matematik didaktikasini) o'z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o'zi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta'sirlanadigan u yoki bu o'quv yo'nalishi uchun eng samarali usullarni qo'llay bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur.

Boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish hamda hisobga olish muhimdir.

Nazariy bilimlardan amaliyotda foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli-tuman metodik masalalar hal etilishi lozim.

Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O'qituvchi darsda yuzaga keladigan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimining tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi. [13]

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish quyidagi maqsadini

o'z oldiga qo'yadi:

a) o'quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o'rgatish, o'quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga o'rgatish,

b) matematika o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirishga qaratilgan.

d) o'quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o'rgatish.

Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasining o'qitish vazifalari:

- 1) ta'lim-tarbiyaviy va amaliy vazifalarni amalga oshirishi,
- 2) nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi kerak;
- 3) o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatishi kerak;
- 4) ta'limni insonparvarlashtirish;
- 5) matematika o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o'zining qadr-qimmatini, bir-biriga hurmati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko'rsatib beradi;
- 6) o'qitish metodikasi I–IV sinflar matematikasining davomi bo'lgan V–VI sinf matematikasi mazmuni bilan bog'lab o'qitishni ko'rsatadi. Ularning ilmiy-izlanishda qo'llanilishi.[39]

Boshlang'ich sinf o'quvchilari egallashlari kerak bo'lgan ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar :

- million ichidagi sonlarni;
- natural sonlar qatorining cheksizligini;
- o'nli sanoq sistemasi misolida sonlarning har xil sanoq sistemasida yozilishini;
- rozitsion va norozitsion sanoq sistemalarini.
- atrof-muhitda mo'ljal ola bilish marshrutni (yo'nalishni)rejalashtirish, harakat yo'lini tanlay olish va h.k.)ni;

- taqqoslash va turli alomatlari: uzunligi, yuzi, massasi, sigʻimiga koʻra tartibga sola olishni;
- soatga qarab vaqtni aniqlashni (soat va minutlarda);
- maishiy-hayotiy vaziyatlar (savdo-sotiq, oʻlchash, tortish va h.k.) bilan bogʻliq hisoblashlarga oid masalalarni yechish;
- oʻlchamlarni koʻzda «chamalab» baholash;
- mustaqil konstruktorlik faoliyati (turli-tuman geometrik shakllarni qoʻllanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda).
- rasmlarda kesma, uchburchak, toʻrtburchak, toʻgʻri toʻrtburchak va kvadratlar, koʻpburchak va aylanani tanishni;
- atrof-muhitdagi geometrik shakllarni tanish va topa olishni;
- uzunlik oʻlchov birliklari (mm, sm, dm, m, km)ni, ular orasidagi asosiy nisbatlarni bilish, zarur hollarda ulardan qaysi birini qoʻllash maqsadga muvofiqligini tushunish, yuz oʻlchov birliklari (kv. sm, kv. dm, kv. m) ni.
- kesma uzunligini oʻlchash, berilgan uzunlikdagi kesmani yasash, kesma uzunligini koʻz bilan chamalab oʻlchashni;
- chizgʻich, goʻniya, sirkuldan foydalanib, toʻgʻri toʻrtburchak, kvadrat, uchburchak va aylanalar yasashni;
- koʻpburchak perimetrini, toʻgʻri toʻrtburchak yuzini va kvadrat birliklaridan tuzilgan shakllarning yuzini hisoblashni;
- masalalar yechishda oʻrnatilgan geometrik jismlarning hajmlarini hisoblashni;
- bir xil maxrajli oddiy kasrlarni qoʻshish va ayira olish hamda bu malakalarni masalalar yechishda qoʻllay olishni **bilishi kerak**.
- 1000000 ichida sonlarni oʻqish va yozish;
- sonlarni yozma qoʻshish, uch xonali va toʻrt xonali sonlarni ayirish, bir xonali va ikki xonali songa koʻraytirish va boʻlish, qoʻshish va ayirish, koʻraytirish va boʻlish orasidagi aloqalarni tushunish asosida hisoblashlarning toʻgʻriligini tekshirish;

- ko‘p xonali sonlarni yozma qo‘shish va ayirish hamda hisoblash natijalarining to‘g‘riligini tekshirish;

- ko‘p xonali sonlarni bir xonali va ikki xonali sonlarga yozma ko‘paytirish va bo‘lish hamda hisoblash natijalarining to‘g‘riligini tekshirish;

- 2–3 amalli sonli (shu jumladan, qavsli) ifodaning qiymatini topish;

- «...ta ortiq», «... ta kam», «... marta ortiq», «... marta kam», «hammasi», «qoldi», «teng» munosabatlarining ma’nosini tushunish va ularni arifmetik amallar bilan to‘g‘ri bog‘lay olish, shu tushunchalarga tayangan holda masalalarni yecha olish;

- kattaliklar (mahsulot narxi, miqdori va qiymati, to‘g‘ri chiziqli harakatda yo‘l tezlik va vaqt) orasidagi bog‘lanishlarni qo‘llab, amaliy mazmundagi masalalarni yechishni ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak:***

- taqqoslash va turli alomatlariga: uzunligi, yuzi, massasi, sig‘imiga ko‘ra tartibga sola olish;

- soatga qarab, vaqtni aniqlay olish (soat va minutlarda);

- maishiy-hayotiy (savdo-sotiq, o‘lchash, tortish va h.k.) ishlarni bajara olish.[39]

Matematika darslarining o‘ziga xos yana bir tomoni shundaki, bu o‘quv-materialining abstrakligidir. Shuning uchun ko‘rgazmali vositalar, o‘qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash, o‘quvchilarning faolligi, sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasi kabilarga ham bog‘liq.

Matematika darslarida turli-tuman tarbiyaviy vazifalar ham hal qilinadi. O‘quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas’uliyatni va ishda sof vijdonlikni, to‘g‘ri va aniq so‘zlashni, hisoblash va o‘lchash, yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchilikni yengishni hislatlarini tarbiyalaydi.

O‘quvchilar bilan har bir darsda bir necha tushunchalar bilan ish olib boriladi. Har birini shu darsning turli bosqichlarida o‘zlashtirishi mumkin. Har bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat

qiladi. O'qitish jarayonida har bir o'quv materiali rivojlantirilgan holda olib boriladi, bu o'quv materiali o'zidan keyin o'qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo'ladi. Boshqa tushunchaning o'zlashtirish jarayonini qarasak, u bir necha darslarning o'zaro bog'liqlik o'qitilishi natijasida hosil bo'ladi. Shunday qilib matematik tushunchalarini hosil qilish birgina darsning o'zida hosil qilinmasdan, balki o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha darslarni o'tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz.

Eng katta talab darsning o'quv-tarbiyaviy maqsadini e'tiborga olish, o'qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir. Mavzu bo'yicha yaxshi o'ylangan darslar tizimining o'quv vaqtini mavzuchalarga to'g'ri taqsimlashga bog'liq. [20] Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turli yo'nalishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rol, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilardagi tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rganish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yin turlarini tanlashda, quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi:


- ishtirokchilarning tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o'yinlar;
- ishtirokchilarning soni bo'yicha – yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo jamoasi va ommaviy tarzda o'yinlar;
- o'yin jarayoni bo'yicha – fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan;

➤ vaqt me'yori bo'yicha – dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlar.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita sanaladi. Unga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lim beruvchi faoliyat sifatida qarash lozim. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limning 1-4 sinflari bola hayotida muhim davrni tashkil qilib, o'quvchining keyingi davrdagi o'qish jarayoniga bo'lgan tasavvurida eng ahamiyatli davrdir. Dars mashg'ulotlari vaqtida har bir o'qituvchi o'z o'quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolaning o'qish, o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

§ 2.2. Ona tili darslarida o'quvchilar bilan differensial yondashuv asosida ishlash

Bugun yurtimizdagi har bir bolaga davlatimizning barcha haq-huquqlaridan to'liq foydalanadigan fuqarosi sifatida qaralishini takidlab o'tishimiz lozim. Xalq talimi vazirligi tomonidan bajarilayotgan islohotlarga davlat tomonidan ratifikasiya qilingan «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» tamoyillari asos qilib olingan.



Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir.

Metodika maktab oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi. Shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi.

Ona tili o'qitish metodikasi-pedagogik fan, amaliy fan. Chunki u nazariyaga asoslanib o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, o'stirishning amaliy vazifalarini bajaradi.

Ona tili o'qitish metodikasining predmeti ta'lim berish sharoitida ona tilini egallash, ya'ni o'qish va yozishni, fonetika, grammatika kabilarni bilib olish jarayoni hisoblanadi.

Ona tilidan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, til haqidagi fanning ilmiy tushunchalar sistemasini o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganadi, til o'rganishning eng qulay metod va usullarini izlaydi.

Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi.

Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Ona tili o'qitish metodikasi fani ham ta'lim jarayonini tashkil etish shakllarini va usullarini ishlab chiqishda yuqoridagi maqsadlar asosida ish yuritadi.

Umumiy o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu bosqichda

ta'limning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

-o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

-ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo.

Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo'yicha ta'kidlangan ko'rsatmalar, uzluksiz ta'limni ta'minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Demak, kishilarning o'zaro munosabati, his-tuyg'ulari, kechinma va holatlari til vositasida aniqlashadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

BOSHLANG'ICH sinflarda ona tili o'qitish usuliyoti amaliy fan sifatida uch vazifani bajaradi:

1. Nimani o'qitish kerak? savoliga javob tayyorlaydi. Demak, ta'lim mazmunini, ya'ni boshlang'ich sinflar ona tili kursining dasturini belgilab beradi, o'quvchilar uchun darsliklar va turli o'quv qo'llanmalari yaratib beradi, ularni doimiy takomillashtirib, muvofiqligi va samaradorligini tekshirib boradi.

2. Qanday o'qitish kerak? savoliga javob tayyorlab beradi. Demak, ta'lim berishning metodlari, metodik priyomlari, mashqlar tizimi, u yoki bu qo'llanmani tatbiq etish tavsiyanomalarini, o'quvchilar amaliy ishlarining izchillik tizimini, dars va uning turlarini ishlab beradi.

3. Nega xuddi mana shunday o'qitish kerak? savoliga javob tayyorlab beradi. Bunda ilmiy nuqtai nazardan eng foydali metodlarni o'rganish, tanlangan

metodlarni asoslash, tavsiyalarni eksperimental tekshirish va boshqalar tushuniladi.

Ona tili o'qitishning har bir bosqichi o'z xususiyatlariga ega. Masalan, maktabgacha tarbiya usuliyoti ona tilini o'rganishda, asosan, bolalar nutqini o'stirishni nazarda tutadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish usuliyotining esa, o'quvchilar nutqini o'stirishdan tashqari barcha bo'limlari ilgari o'rganilgan qandaydir fundamentga asoslana olmaydi. Uning "boshlang'ich ta'lim usuliyoti" nomidanoq buni bilish mumkin. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish usuliyotining asosiy bo'limlari quyidagilardir:

Savod o'rgatish usuliyoti ya'ni elementar o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga savod o'rgatish pedagogikadagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy qo'yilgan muammodir.

O'qish usuliyoti. Boshlang'ich sinflarda o'qish predmetining vazifasi, birinchi navbatda, bolalarni tez (me'yorida), to'g'ri, ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Grammatika va imlo usuliyoti. Bu bo'lim elementar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatishni, grammatik tushunchalarni, boshlang'ich imlo malakalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish usuliyoti. Bu bo'lim boshlang'ich sinflarda alohida o'rin tutadi. Bolalar birinchi marta til, nutqni o'quv predmeti sifatida anglaydilar, ular hohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy va hodisalar haqida o'ylab, rejalashtirib nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar, ular o'zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og'zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni egallaydilar.[57]

Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til me'yorlarini, ya'ni imloviy va tinish belgilariga rioya qilingan savodli yozuvni, to'g'ri talaffuzni o'rganish, nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikologiyadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish.

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi, muomala madaniyatini egallaydi.

Ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur.

Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standard belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi [56].

Boshlang'ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o'rganilmaydi, albatta. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan harakatchan, tez rivojlanadigan bo'lgani uchun til leksikasi misolida boshlang'ich sinf o'quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar yuzasidan

o'qituvchi va o'quvchilarning kuzatishlari bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurni shakllantirishga mos material beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tilni o'zlashtirish jarayonini tekshirish shuni ko'rsatadiki, tilga ilmiy qarash asoslarini shakllantirish uning muhim bog'lanishlarini bilishga yordam beradi. Xususan, o'quvchilar so'zning tovush tomoni bilan uning leksik ma'nosi, so'zning morfemik tarkibi bilan leksik ma'nosi, so'zning grammatik ma'nosi bilan uning ma'lum so'z turkumiga tegishliligi o'rtasidagi bog'lanish kabilarni bilib olishi shu maqsadga xizmat qiladi. Bu bog'lanish tilning fonetik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining bir-biriga ta'sir qilishini tavsiflaydigan umumiy bog'lanishlarning xususiy ko'rinishi hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilarning tilga xarakterli bog'lanishlarni tushuntirishlari tilni egallash nuqtai-nazaridagina emas, balki dunyoqarashlarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Tafakkur keng ma'noda hodisalarni boshqa hodisalar va jarayonlarga bog'liqligini hisobga olib, ularni har tomonlama mavjud belgilari YIG'INDISI bilan rivojlanishda qurish ko'nikmasini ta'riflaydi. Tafakkurning bunday sifati o'quvchilarda asta-sekin shakllana boradi va, o'z navbatida, ular kuzatish jarayonida dalillarni to'ish, ularni tahlil qilish va o'rganiladigan hodisalarning ayrim tomonlari o'zaro bog'liqligini aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmasini egallab boradilar. Keyingi yillarda o'quvchilarning o'quv faoliyati tobora izlanish xarakterini olib bormoqda. Tilni o'rganishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayrim qoida va aniqliklarni yodlab olish emas, balki atrofdagi hayotni kuzatish asosida o'quvchilarning o'zlari "topgan" yoki adabiy manbalardan tayyor olingan til materialini maqsadga muvofiq analiz va sintez qilish yetakchi hisoblanadi. O'rganiladigan grammatik, so'z yasalishiga oid, leksik tushunchalarning mavjud belgilarini aniqlash jarayonida faol qatnashish, bilib olingan dalillarni o'xshash yoki farqli tomondan qiyoslash, shuningdek, o'rganilgan nazariy bilimlarni har xil nutqiy faoliyatga ijodiy tatbiq etish — bularning barchasi o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini o'stirish uchun

zamin, shart-sharoit yaratadi. Bunda muhim omillardan biri o'quvchilarning aqliy faoliyatini o'qituvchi tomonidan maqsadga muvofiq boshqarish, ularda orfografik, grammatik yoki leksik-stilistik vazifalarni hal qilishning umumiy metodlarini shakllantirish hisoblanadi.

Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda o'zbek tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega.

O'quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantirish ko'pqirrali jarayon bo'lib, maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarning barcha tizimida hal qilinadi.[55]

Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri, yani ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bog'liq, muhim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masaladir.

O'zbekistonning huquqiy davlat sifatida rivojlanishi jarayonida prezidentimiz har bir fuqaroning manfaatini himoyalashda uning jinsi, millati, irqi, yoshidan qat'i nazar qonun ustuvorligini taminlashni asosiy omil sifatida belgilaganlar.

Mazkur tamoyillarni amalda qo'llash jarayonida bu vazifaning oson emasligi bilinadi. Bu borada quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

Masalan, internat muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ko'pchiligini nogiron bolalar tashkil etadi. Xalqaro tashkilotlarning tavsiyanomalarida deinstitutionalashda inklyuziv metodni asosiy usul sifatida tatbiq qilish kerak deyilgan.

Xo'sh, kar o'quvchining uyidan uzoqda o'qitilishi uning konvensiyadagi haq-huquqlarini buzadi, deyish mumkinmi? Biz «ha» deb javob beramiz. Chunki bolani «kamsitmaslik» tamoyili va oilasi bilan yashash huquqidan mahrum etayapmiz. Agar bolani uyiga yaqin joylashgan qishloq umumta'lim maktabida 35 nafar o'quvchi ta'lim olayotgan sinfda o'qishga qoldirsak bunda uning «shaxsiy manfaatlari» tamoyilini buzgan bo'lamiz.

Bola bu yerda o'ziga yetarli etiborni olmaydi. Maktabda defektologlarning yo'qligi uchun o'quvchi maxsus muassasadagidek ta'lim olmaydi, oqibatda rivojlanishda orqada qoladi va kasb egallashga tayyorlana olmaydi. Bundan tashqari, bu o'rinda bolaning «Shaxsiy fikri» tamoyili buziladi. Shu bois, deinstitutionlashga, inklyuziv ta'limni kiritishda muhitni chuqur o'rgangan holda, ehtiyotlik bilan ish ko'rish zarur hisoblanadi. Zero, bizning asosiy maqsadimiz har bir bolaning o'z oilasida yashash va bolalar qatorida sifatli bilim olish haq - huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun biz murrakkab masalalarni hal qilishimiz, bu ishni turli yo'nalishda olib borishimiz lozim. Bolalarni ijtimoiy himoyalash yo'lida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish uchun tatbiq etilayotgan dasturlarning doimiy monitoringini olib borish zarur. Bu yo'nalishda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, himoyaga muhtoj bolalar guruhlarini ijtimoiy himoyalash monitoringini olib borish uchun tashkilotlararo ma'lumotlar tuzilib, viloyat, shahar, tuman xalq ta'limi, sog'liqni saqlash hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'limlari ishtirokida har bir nogiron bola bo'yicha ma'lumotlar banki tuzilgan. Xalq ta'limi bo'limlari xodimlari tomonidan har bir xonadon o'rganilib, nogiron bolalar aniqlab chiqildi. Natijada 4750 nafar bola o'qishga jalb etildi. Shuningdek monitoring natijalari uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiyaviy va tibbiy xizmatni baholash, xato quyilgan tashhisni aniqlash, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyalarning ish unumdorligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish uchun turtki bo'ladi. Vaziyatni o'rganish natijasida, bugungi kunda respublikamizda ta'limga jalb etilmagan bola deyarli yo'q, deb faxr bilan ta'kidlash mumkin.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishida nihoyatda yuqori e'tiborni talab qiluvchi umumta'lim tizimining sohasi hisoblansa, imkoniyati cheklangan bolalar esa jamiyatning ijtimoiy qatlamidir, chunki ularning ko'pchiligi kam ta'minlangan oilalarda voyaga yetganlar. Inklyuziv ta'lim – bu imkoniyati cheklangan bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko'pchilik bolalar uchun amalga oshiriluvchi ta'lim tabirlariga jalb etishdir. Shundagina imkoniyati

cheklangan barcha bolalar jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim borasida, balki bolalarning ma'naviy va jismoniy o'sishlari, shuningdek vositalarni iqtisod qilish borasida ham samaralidir.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maxsus ta'limda o'qitishni inklyuziv va integrallashtirilgan ta'lim asosida olib borish ta'lim siyosatidagi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limda inklyuziv yondoshish nafaqat pedagogik hissiy, psixologik jihatdan qulay, bu davlat uchun ham ancha arzon va samarali hisoblanadi.

Olib borilgan kuzatishlar asosida biz quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitishni tashkillashtirish;

- Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish;

- Inklyuziv ta'limni joriy qilishda muassasa hodimlarini ish vazifalarida islohotlarni amalga oshirish;

- O'qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashni yo'lga qo'yish;

- Imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy xususiyatlariga ko'ra yakka tartibda korreksion metod va moslashtirilgan o'quv reja, dasturlar va boshqa omillardan foydalanib, atrofdagi jamoatchilik bilan birgalikda o'qitishning turli shakllarini tashkil qilish;

- Bolalar uchun ta'lim sharoitini yaratish va ta'lim samaradorligini oshirish;

- Barcha yoshdagi bolalar atrofida yashayotgan va ishlayotgan bolalar bilan bir xil sharoitda o'qishlari va kamol topishlari zarur;

- Sinfdagi o'quvchilar soni muammosini hal qilish;

- Ota-onalar uchun nogiron bolalarni o'qitish tizimi, inklyuziv ta'lim tizimi haqidagi o'quv qo'llanmalar yaratish;

- Nogiron bolalar oilasi bilan maktabda uzviy aloqa o'rnatish;

-Nogiron bolalarni maktabga kelishi uchun transport bilan ta'minlash masalalari;

-Chekka qishloqlardagi tashxisning yaxshi yo'lga qo'yilishini ta'minlash;

-Nogiron bolalarning ota-onalaridagi huquqiy bilimini oshirib borish;

-Ta'lim muassasalari uchun kadrlar yetishtirish;

-Inshoatlarning maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirish;

Umumiy o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi.

Milliy dasturimizda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangi tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

❖ o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

❖ ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hakazo.

Hujjat prezidentning 2020 yil 13 oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasiga O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi:

- alohida ta'limga muhtoj bolalar o'qiydigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- ushbu ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o'quv qurollari, turli kasblar bo'yicha o'qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, ta'lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko'tarish moslamalari, panduslar, panjara

va boshqalar), shuningdek, tegishli xodimlar bilan ta'minlash (maxsus o'qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo'yicha mutaxassislar);

- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash va boshqalar.

Qaror bilan umumiy ta'lim muassasalarida alohida ta'limga muhtoj bolalarni inklyuziv o'qitish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. U quyidagilarni nazarda tutadi:

- inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari;
- maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tuzatish sinflarini tashkil etish tartibi va alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun o'quv jarayoni;
- bolalarni inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflariga qabul qilish tartibi;
- inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflarida ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar.

Bundan tashqari:

- jismoniy, aqliy, hissiy yoki aqliy nuqsonli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari;
- sanatoriy-kurort tipidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim davlat muassasalari;
- jismoniy, aqliy, sezgi yoki aqliy nuqsonli bolalar, shuningdek, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun yakka tartibda uyda ta'lim olish tartibi to'g'risidagi nizom ham tasdiqlandi.

Shuningdek, qarorda alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim davlat muassasalarida kasbiy tayyorgarlik kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari belgilangan.

§ 2.3. O'quvchilarni rag'batlantirishda interfaol usullardan foydalanish

O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan O‘zbekiston Resbulikasi “Ta’lim to’g’risida” gi Qonuning 20 moddasida “Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo’lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo’lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi” deb takidlangan.

2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4860-son Qarori, 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni tashkil etish masalalari bayon qilingan. Hozirgi kunda respublika bo’yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda 21,2 ming nafar, 21 ta sanatoriy turidagi maktab-internatlarda 6,1 ming nafar o‘quvchilar ta’lim-tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo’lgan 13,3 ming nafar o‘quvchilar uyda yakka tartibda o‘qitiladi.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadi — ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta’lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Har bir ijtimoiy tuzum ta’lim oldiga o‘ziga xos maqsad va vazifalarni qo‘yadi. Bunday vazifalar turli davrlarda turlicha bo’lgan. Jamiyat, fan, texnologiya va ijtimoiy munosabatlar o‘zgarishi ana shu maqsadlarning yangilanishiga sababchi bo’ladi. Qadimgi Afina, Sparta va Rim ta’lim tizimining oldiga qo‘yilgan maqsadlar yoshlarda asosan harbiy, jismoniy va estetik tarbiyani

shakllantirish bo'lgan bo'lsa, o'rta asrlarga kelib matematika, astronomiya, falsafa, geografiya fanlarining gurkirab rivojlanishi sababli ularni o'rganish asosiy maqsad qilib belgilangan. Uyg'onish davri va ayniqsa o'rta asrlardan keyingi davrlarda ta'limning nafaqat bilim berish, balki ta'lim oluvchini shaxs sifatida rivojlantiruvchi funksiyalariga alohida e'tibor qaratila boshlandi.[79]

Umumiy o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturimizda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangi tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

*o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

*ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hakazo.

“MIM” strategiyasi: majburiyat+imkoniyat=muvaffaqiyat. Kunni ratsional rejalashtirishda darslarning texnologik loyihasini tuzish o'zaro muvofiqlashishi lozim. Darslarni loyihalashtirishda “Samarali maqsad” yondashuvidan foydalanildi. “Didaktik muhit egasi” texnologiyasi adaptiv variatsiyaga asoslanadi. Didaktik muhitda bola uchun qulay usul va vositalarning moslashuvchanligi yuzaga keladi va o'quvchilarning mustaqil faoliyati ustuvorlik qiladi. O'quvchi harakatlarni bajarishning qulay usullari va ketma-ketligini mustaqil tanlaydi. Har bir ish yakunida nutqiy hisobot talab etiladi. “1-4-5” strategiyasi nutqiy klasterli yondashuvga asoslandi va o'quvchilarni yangi so'z bilan tanishish va undan faol lug'atda qo'llashga o'rgatuvchi ish turlarini o'z ichiga oldi, ya'ni: 1-so'z, 4-uning to'rt xil shakli (og'zaki, daktil, imo-ishora, yozma), 5-beshta to'shiriq: so'z, so'z birikmasi, gap, matn, savol tuzish. “Yagona nutqiy tartib” o'quvchilarni muloqotga va fanlarni o'zlashtirishga nutqiy jihatdan tayyorlaydi. Klasterli nutqiy monitoring mezonlari hamda “Yagona imo-ishoralar” resursi yaratildi. Har bir sinfdan har hafta 50 tadan so'z yoki so'z birikmasi berilganligi natijasida o'quv yilida 1500-2000 ga yaqin so'zlarning o'quvchilar lug'at zaxirasidan o'rin olishi nazoratga olindi.

Dushanba	Kitob	daftar	choy	non	suv	Stul	so‘z	qo‘l	til	bosh
Seshanba										
Chorshanba										
Payshanba										
Juma										

Haftalik
so‘zlar qutisi

Nutqiy monitoring jadvali

Muassasalarda differensial, individual yondashuvlarga asoslangan “Yakka rivojlanish” strategiyasi “Muhim beshlik” (sinf, fan va yakka mashg‘ulot o‘qituvchilari, psixolog, tarbiyachi) faoliyati mazmuniga optimallashtirildi. Natijada har bir o‘quvchining nutqiy zaxirasi va fanlardan o‘zlashtirishi raqamli tahlil qilindi. O‘quv yili yakunida dinamik o‘zgarishlar tahlili o‘tkazildi. “Adaptiv variatsiya” motivatsion strategiyani amalga oshirish uchun “Variatika doskasi” (2-rasm) o‘quvchilarning mustaqil ishlashlarini tashkil etish maqsadida oddiy bo‘r bilan partada yoki doska yonida juftliklarda ishlash uchun tatbiq etildi.

△										○
△										○
△										○
Minglik										
Yuzlik										
O‘nlik										
Birlik										

“Variatika doskasi”

Masalan, 1-qatorga (+), (-), (:), (•), (>) (<) ni yozing, uchburchakka 2,4,6,8, doiraga 12, 16, 48, 64 sonlarini yozing. Doiradagi sonni hosil qiling.

Uchburchakdagi songa nechani qo'shsa, shu son hosil bo'ladi? Misol o'rtaga yoziladi. So'ngra natija chiqqan sonda nechta birlik, o'nlik borligini aniqlab, pastki mos qatorlarga belgi qo'yiladi. Ona tili darslarida:

1-qatorga so'z yoziladi. So'zdan so'z hosil qiling. So'zlarni so'z turkumlariga ajratib, 1-uchburchakka ot, 2-uchburchakka sifat, 3-uchburchakka fe'lni yozing.

Inklyuziv ta'limdan o'tgan sog'lom bolalar mehr -shafqat, hamdardlik va tushunishni rivojlantiradilar, ular xushmuomala va bag'rikeng bo'lib qoladilar, bu ayniqsa bag'rikenglik darajasi past bo'lgan jamiyat uchun juda muhimdir

II-BOB BO'YICHA XULOSA

Tildan bilim berishda o'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir. O'qituvchi nazariy xarakterdagi umumlashtirish zarur bo'lgan faktik materiallarni yig'ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Tilga oid bilimni o'rganish natijasida o'quvchilarning nutq faoliyatining sifati o'zgaradi, ongliligi ortadi. Tilni o'rganishni hayot bilan bog'lash dunyoning moddiyligini tushunishga asos yaratadi. Bu bilan bir vaqtda ona tili darslarining asosiy vazifalaridan biri bo'lgan o'quvchilarda to'g'ri kuzatish va o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda bayon etish ko'nikmasini o'stirish masalasi hal qilinadi. Bunda o'qituvchidan o'quvchilarda fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tilni o'zlashtirish jarayonini tekshirish shuni ko'rsatadiki, tilga ilmiy qarash asoslarini shakllantirish uning muhim bog'lanishlarini bilishga yordam beradi. Xususan, o'quvchilar so'zning tovush tomoni bilan uning leksik ma'nosi, so'zning morfemik tarkibi bilan leksik ma'nosi, so'zning grammatik ma'nosi bilan uning ma'lum so'z turkumiga tegishliligi o'rtasidagi bog'lanish kabilarni bilib olishi shu maqsadga xizmat qiladi. Bu bog'lanish tilning fonetik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining bir-biriga ta'sir qilishini tavsiflaydigan umumiy bog'lanishlarning xususiy ko'rinishi hisoblanadi.

III. BOB. INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA FANLARNI O'QITISH JARAYONIGA TATBIQ ETILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR SAMARADORLIGI

§ 3.1. Tajriba-sinov ishlari mazmuni va ularni tashkil etish bosqichlari

“Inklyuziv ta’limda fanlarni o’qitishning pedagogik shart-sharoitlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishini olib borishda hamda tadqiqot yechimini topishda asosiy e’tiborimizni muammoning nazariy va amaliy jihatlarini o’rganishga qaratdik. Buning asosiy sababi mavzu doirasida ilgari surilayotgan g’oyalarning amaliyotda qay darajada qo’llanilayotganini aniqlashdan iboratdir. Mavzu doirasida belgilab olingan maqsadning natijalanganligi o’rganilgan nazariy g’oyalarning amaliyotdagi isboti, qo’llaniladigan metodlarning to’g’ri tanlanganligi, qo’yilgan vazifalarning aniqligi, ilmiy tadqiqot faoliyatining puxta rejalashtirilganligi, tajriba-sinov ishlarining uzluksiz, izchil va tizimli tarzda tashkil etilganligi bilan belgilanadi. Shu sababli mavzu doirasida mavjud nazariy manbalar bilan tanishib chiqish asosida mavzu doirasida “Tajriba-sinov ishlari dasturi”ni ishlab chiqildi. Tajriba- sinov ishlari dasturi mavzu doirasida olib boriladigan tadqiqot ishining umumiy mohiyatini ochib beradi.

Ilmiy tadqiqot ishi doirasida tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan maqsad inklyuziv ta’limda fanlarni o’qitishning pedagogik shart-sharoitlari amaliy jihatdan o’rganish.

Belgilab olingan maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar bajarildi:

1. Inklyuziv ta’limda fanlarni o’qitishning mavjud holati o’rganildi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun Inklyuziv ta’lim mazmunini yoritib beruvchi metodik adabiyotlar, uslubiy tavsiyalar bilan tanishib chiqildi, maktab o’qituvchilari bilan suhbatlar tashkil etildi, ular o’rtasida anketa va ijtimoiy so’rovnomalar o’tkazildi, pedagogik kuzatuv tashkil etildi.

2. Umumta’lim maktablarida alohida ehtiyojli bolalar ta’limini yaratishda e’tiborga olishi kerak bo’lgan omillarni aniqlandi. Mazkur vazifalarni

amalga oshirishda umumta'lim maktablari o'qituvchilari bilan mavzu doirasida ularning mulohazalarini inobatga olgan holda muloqotlar tashkil etildi.

3. “Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari” mavzusida amaliy trening va seminarlar tashkil etildi. Jumladan inklyuziv ta'limni tashkil etish borasida mavjud muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etishda amaliy yordam ko'rsatildi. Ushbu vazifani amalga oshirishda o'qituvchilar ishtirokida suhbatlar tashkil etildi.

4. Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarini qaror toptirish. Bunda o'qituvchilarga inklyuziv ta'limning amaliy ahamiyati va zarurati to'g'risida tushunchalar berildi. Tizimli ravishda olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasida yaratilgan “Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari (umumta'lim maktablari misolida)” mavzusidagi metodik tavsiyalarning samaradorlik natijasi aniqlandi. Bu vazifaning ijrosini ta'minlash maqsadida so'rovnoma o'tkazilgan pedagoglar bilan seminar-treninglar tashkil etildi va ular faoliyat olib boradigan maktabda inklyuziv ta'lim borasida maslahatlar berildi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlardan tashkil topdi:

1. Tajriba-sinov ishlarining tashkiliy bosqichi. Ushbu bosqichda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishi doirasida amaliy faoliyat mazmunini yorituvchi tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan tajriba-sinov dasturiga muvofiq har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab olindi va reja asosida amalga oshirildi. Bunda tajriba-sinov o'tkaziladigan mutaxassislar aniqlab olindi va ularga tajriba-sinov ishlarini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad, kutilayotgan natijalari haqida tushunchalar berildi.

2. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bosqichi. Bu bosqichda inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish imkonini beruvchi shart-sharoitlar yaratildi. O'qituvchi-pedagoglar bilimni aniqlovchi so'rovnomalar, dars ishlanmalari tayyorlandi. Inklyuziv ta'lim bo'yicha amaliy metodik yordam berildi.

3. Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichi. Mazkur bosqichda inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarini tashkil etish va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning samaradorligi aniqlandi. Tajriba-sinov ishlarining yakuniy ko'rsatkichlari matematik-statistika metodi yordamida qayta tahlildan o'tkazildi.

“Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari” mavzusidagi magistr ishi doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillar quyidagilardan iborat:

1. Obyektiv omillar. Bular jumlasiga inklyuziv ta'limda darslarni tashkil etishda belgilangan talablar mazmuniga muvofiq o'qituvchilarni puxta tayyorlanganligi, jihozlar, o'quvchilar foydalanishlari uchun mo'ljallangan didaktik va ko'rgazmali qurollarning mavjudligi kiradi.

2. Subyektiv omillar. Bunga asosan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun tanlab olingan mutaxassislar va o'qituvchilar tomonidan mas'uliyatni his qilinganligi, tajriba-sinov dasturining mazmuni, maqsadi va uning yakunlari haqida to'liq tushunchalar berilganligi, o'qituvchilardan inklyuziv ta'limni tashkil etish borasida bilim va ko'nikmalarning mavjudligi, ularning kasbiy mahorati, tajriba-sinov ishlarining tizimli ravishda olib borilishi kiradi.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va ijobiy natijalarga erishishda quyidagi tamoyillarga asosiy hisoblanadi:

1. Mavzu doirasida olib boriladigan tajriba-sinov ishlarini o'tkazishga qo'yilgan maqsadining aniqligi.

2. Umumta'lim maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kasbiy mahoratlari hamda muassasada yaratilgan imkoniyatlar.

3. Tajriba-sinov ishlarining izchil, tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etilgani.

4. Tajriba-sinov ishlari o'tkazish jarayonida o'quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatlari inobatga olinganligi.

O'tkazilgan amaliy faoliyat jarayonida suhbat, anketa so'rovnomalar, seminar-treninglar tashkil etish, ko'rgazmalilik, amaliy mashg'ulotlarni

o'tkazish, namoyish etish metodlaridan, o'quv va texnik jihozlardan unumli foydalanildi. Bu vositalardan foydalanish tajriba-sinov ishlari yakunida samarali natijalarga erishishni ta'minladi.

Eksperimentni aniqlash bosqichida o'quvchilar mashg'ulot paytida boshdan kechirgan jismoniy qiyinchiliklarni ko'rsatdilar. Bu qiyinchiliklar maktabga borishga to'sqinlik qiladigan kasalliklarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ular asosan ko'rish qobiliyati zaif bolalarda o'qish va yozishda muammolarni o'z ichiga oladi. Kognitiv qiyinchiliklar, bolalar, o'qituvchilar bilan muloqot qilish muammolari, o'quv faoliyati bilan bog'liq muammolar va psixologik muammolar - reketlik va o'qituvchining e'tiborining yetishmasligi.

Inklyuziv ta'limni joriy etish va amalga oshirish uchun mas'uliyat tuman va mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga yuklasin. Sohada mini-loyihalarni birgalikda moliyalashtirish ko'p hollarda maktablarning reja-byudjetlariga kiritilganidan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Birgina 2016 yilning o'zida qo'shimcha 70 ta maktabda panduslar qurish, zarur jihozlar xarid qilish rejalashtirilgan. Bolalar klublari a'zolari ota-onalar, mahalla a'zolari, mahalliy davlat hokimiyati va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda panduslar qurish bo'yicha arizani ishlab chiqishda ishtirok etdilar va bu jarayonda ularning faolligini ta'minladilar.

Eksperimenti natijasida inklyuziv ta'lim orqali bolalarni samarali ijtimoiylashtirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishning dolzarb zarurati aniqlandi:

1) jismoniy, ta'lim muhitini bolalarni qabul qilish va maktabning barcha bolalarni qabul qilishga tayyorligi uchun moslashtirish;

2) o'qituvchilarning inklyuziv kompetentsiyasini oshirish,

3) ota-onalar va jamoatchilikni maktab muammolarini, ta'lim va ijtimoiylashuv jarayonini hal qilishga jalb qilish;

4) bolalarda ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga, ularning ijodiy salohiyatini, mustaqilligini va ijtimoiy mas'uliyatini

rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan norasmiy bolalar klublarini tashkil etish orqali maktabning ijtimoiylashuv salohiyatini mustahkamlash.

Shakllantiruvchi eksperiment jarayonida biz maktabda bolalarni samarali ijtimoiylashtirish uchun biz ishlab chiqqan pedagogik modelga tayandik, bu esa shakllantiruvchi eksperimentning quyidagi vazifalarini shakllantirishga imkon berdi:

1. Pedagoglarning inklyuziv kompetentsiyasini oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim bo'yicha o'qituvchilar malakasini oshirish kursi dasturi va o'qituvchilar, ota-onalar va ta'lim sohasi mutaxassislari uchun "Birgalikda maktabga" o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanma ishlab chiqilsin.

2. Maktab darajasida qaror qabul qilish jarayonida ota-onalarning motivatsiyasi va ishtirokini oshirish uchun ular bilan ishlash.

3. O'qituvchilarni, ota-onalarni, MPK a'zolarini, Ta'lim va fan vazirligi mutaxassislari inklyuziv ta'lim bo'yicha treninglarda o'qitish.

4. Maktabning ijtimoiylashuv salohiyatini kengaytirish va bolalarga yetakchilik ko'nikmalarini o'rgatish uchun bolalar klublari faoliyatini tashkil etish Birinchi shart - jismoniy maktab infratuzilmasining bolalarni maktabga qabul qilishga tayyorligi qarorlar qabul qilish darajasida va mahalliy aholi bilan o'zaro hamkorlik orqali amalga oshirildi. Inklyuziv madaniyatni rivojlantirishning bir qismi sifatida hokimiyat organlari. Maktab infratuzilmasini yaxshilash (panduslar, hojatxonalar qurish) uchun ota-onalar va jamoatchilikni safarbar qilish maktab muammolarini hal qilishda samarali vositadir.

§ 3.2. Tajriba sinov ishlari natijalari va ularning tahlili

Maktabda o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning pedagogik shartlarini tahlil qilish asosida o'qituvchilar, ota-onalar va jamiyat a'zolarini bolalarni ijtimoiylashtirishga o'rgatish uchun "Birgalikda maktabga" o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi. Qo'llanmaning mazmuni inklyuziv ta'lim masalalari, maktabda va sinfda do'stona muhit yaratish, sinfda o'quvchini

baholash tamoyillari, bolalarning xilma-xilligini hisobga olgan holda sinfga o'zgartirishlar va joylashtirish, o'qituvchilar uchun tavsiyalarni o'z ichiga oladi. bolalarni o'z ichiga oladi, bolalarning aql-zakovatining ko'pligini hisobga olgan holda darslarni tashkil etish usullari, darslarda ko'p bosqichli vazifalarni tashkil etish va strategiyalari, tematik markazlarda noodatiy darslar. Ushbu faoliyat quyidagilarni o'z ichiga oladi: eksperimentni aniqlash bosqichida baholash, "Birgalikda maktabga" uslubiy qo'llanmasini ishlab chiqish, inklyuziv yondashuvlarga o'qitish, Bola huquqlari to'g'risidagi konventsia, inklyuziv ta'limning qonunchilik va huquqiy jihatlarini shakllantiruvchi eksperiment, maktabda o'quvchilarni ijtimoiylashtirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni tahlil qilish, maktab hamjamiyatlarining ularning faoliyati natijalari to'g'risida xabardorligini oshirish, bolalarni ijtimoiylashtirish maktabini rivojlantirishning strategik rejasini rejalashtirish va ishlab chiqish, mavzuni ishlab chiqish. inklyuziv ta'limda o'qituvchilar malakasini oshirish kursi.

Formativ eksperiment va pedagogik shartlarning ikkinchi vazifasini hal qilish doirasida empirik tajribalar asosida biz o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasini shakllantirish zarurligini aniqladik.

Shu munosabat bilan inklyuziv ta'limda pedagog kadrlar malakasini oshirish bo'yicha maxsus kurs dasturi ishlab chiqildi. Aniqlash bosqichida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning atigi 8 foizi interfaol va inklyuziv o'qitish usullari bilan tanish va ulardan o'z faoliyatida foydalanar ekan, 3 foizi o'z ishida o'quv materiallaridan foydalangan. Shuning uchun o'qituvchilarning inklyuziv ish usullari bo'yicha salohiyatini oshirish zarurati tug'ildi.

Maktab ta'limi davrida rivojlantiruvchi-korreksion ishlarni maqsadli, tizimli, strategik yo'nalgan, taktik va didaktik ta'minlangan holda olib borish orqali o'quvchilarni ijtimoiy hayotga samarali tayyorlashga erishish mumkinligi o'z isbotini topdi.

Muvaffaqiyatli inklyuziyani amalga oshirishning navbatdagi ko'rsatkichi inklyuziya jarayonini individuallashtirishdir. Shaxsiy rejalarni ishlab chiqish

orqali o'qituvchilar turli bolalar bilan ishlashda o'zlarining vakolatlari va ishonchlarini oshiradilar. O'qishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalarning yutuqlarini nazorat qilish va nazorat qilish uchun individual reja kerak. O'qituvchilar ba'zan bolalarning maktabdagi yutuqlarini baholash uchun kundaliklaridan foydalanadilar, lekin bolaning muvaffaqiyatini umumiy choraklik akademik baholashdan tashqari, o'qituvchilar o'zlarining shaxsiy rejasiga muvofiq bolalarning yutuqlarini tizimli individual baholashni o'tkazmaydilar.

Ushbu muammoni hal qilishga urinib, formativ eksperiment bosqichida o'qituvchilarga sinfda foydalanish uchun bolaning o'rganish natijalarini kuzatish va qayd etish bo'yicha individual rejalarni ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berildi. Reja o'qituvchilarning ish yukini va juda oddiy to'ldirish algoritmini hisobga olgan holda soddalashtirilgan tuzilishga ega. Har bir o'qituvchi bu bilimlarni egallashi va uni o'z amaliyotida qo'llashi va shu tariqa hisobni yuritishi va xavf ostida bo'lgan barcha bolalarni ro'yxatga olishi mumkin. Individual reja o'qituvchi va ota-onalarga bolaning butun ta'lim davrida yaqin aloqada bo'lishiga, erishilishi mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilashga va ularga bolalar va ota-onalar bilan birgalikda erishishga yordam beradi.

Maktabda ijtimoiy o'qituvchi lavozimining mavjudligi xavf ostida bo'lgan bolalarni qamrab olish va ijtimoiylashtirish g'oyalarini amalga oshirish va amalga oshirishga yordam beradi. Ijtimoiy pedagog psixolog maqomiga ega, xulq-atvori buzilgan, moslashuvi buzilgan bolalar bilan ishlaydi, o'quvchilar, ota-onalar, muloqotda, ijtimoiylashuvda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar bilan nizolarni hal qiladi. Ijtimoiy pedagoglarga o'quvchilarning ijtimoiylashuv darajasini baholash, deviant xulq-atvorning oldini olish va to'g'rilash, ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini va to'g'ri xulq-atvorini oshirish bo'yicha usullar taklif etildi. Ijobiy o'zgarishlarga qaramay, bolalar psixologiyasi, nogiron bolalarni o'qitish pedagogikasi bo'yicha maxsus bilimlarning yetishmasligi tufayli umumiy ta'lim maktabida nogiron bolalarni o'qitishga salbiy munosabatda bo'lgan o'qituvchilar mavjud. Nogiron bola, murakkab nogiron bolalarni davlat maktabiga kiritish

vazifalarini amalga oshirish uchun maxsus bilimga ega emas. O'qituvchilarning ta'kidlashicha, bu maxsus maktablar, mehribonlik uylari va maktab-internatlarning vakolati. Bolaning psixologik-ijtimoiy farovonligining muhim ko'rsatkichi uning guruhga mansublik hissi va tengdoshlari bilan do'stligidir.

Ushbu ma'lumotlar bilan bog'liq holda, tajriba uchun maktablar quyidagi **mezonlar** bo'yicha tanlandi:

1. Maktabdagi imkoniyati cheklangan bolalar soni.
2. Nogiron bolalarni qabul qilish uchun maktab infratuzilmasining yomon ahvoli.
3. Imkoniyati cheklangan bolalar foydalanishi uchun ularda panduslar, hojatxonalar va tutqichlarning yo'qligi.
4. O'qituvchilar interfaol va inklyuziv o'qitish usullariga o'rgatilmagan.

Yuqoridagi faoliyat yo'nalishlari asosida maktab o'qituvchilaridan anketa-so'rovnoma o'tkazdik. Quyidagi jadvalda respondentlarning inklyuziv ta'lim bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari yoritilgan. Tajriba va nazorat guruhlarida tajriba-sinov ishlarining samaradorligini baholash bevosita anketa-so'rovnoma natijalarini o'zaro qiyosiy tahlil etildi va 1-2 jadval shakllantirildi.

3.2.1-jadval.



Tajriba guruhida o'qituvchilarni o'zlashtirish darajasi ko'rsatkichlari

O'zlashtirish darajalari				
Tajriba davri	O'qituvchilar soni (22 nafar)	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba boshida	11	20,19%	35,27%	44,54%
Tajriba yakunida	11	34,63%	48,19%	18,18%

3.2.2-jadval

Nazorat guruhida o'qituvchilarni o'zlashtirish darajasi ko'rsatkichlari

O'zlashtirish darajalari				
Tajriba davri	O'qituvchilar soni (23 nafar)	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba boshida	11	4	5	2
Tajriba yakunida	12	5	6	1



O'qituvchilarning inklyuziv ta'lim bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarish, ularga qarata aytilgan murojaatlarni tushunishi sifat jihatdan ijobiy tomonga o'zgardi.

Jadvaldan ma'lum bo'lishicha, respondentlarning tajriba-sinovlar natijasida javoblarni topish darajasi tajriba guruhlarida 20,19% dan 34,63% gacha o'zgargan, ya'ni 14% ni tashkil etgan. Nazorat guruhlarida esa bu ko'rsatgich jami 10 % ni tashkil etdi. Ammo "To'g'ri" javoblarni topishdagi farq 14% ni ko'rsatdi. Demak, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdagi zaruriy ko'nikmalarni bilish darajasi kam bo'lsa-da oshib borgan. Bu hol ularning bevosita o'qish jarayonida inklyuziv ta'lim jarayon bilan yaqindan tanishganliklarini, shu sababli ushbu jarayon to'g'risidagi tasavvurlarining yanada kengayib borganligini ko'rsatdi.

Tadqiqotimizning navbatdagi sinovi inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojli bolalarda "O'zlashtirmovchilikni vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omillar" haqida edi. O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojli bolalarda o'zlashtirmovchilikni vujudga kelishiga ta'sir etuvchi birinchi omil sifatida ota-onaning bola bilan shug'ullanmasligi deb ko'rsatishgan. Haqiqatdan ham maktabda o'qituvchi ming qiziqarli dars o'tgan bilan uyga kelganda, ota-ona bolasining uy vazifasini nazorat qilmasa, o'tilgan yangi mavzu uy vazifalarida yanada mustahkamlanib, tushuntirilmasa, o'quvchining qiziqishi so'nadi, bora-bora u sinfdagi o'zlashtirmovchi o'quvchilar safidan joy oladi. 27,4% o'qituvchilar bola psixik jarayonlarining yetarlicha rivojlanmaganligi o'zlashtirmovchilikni vujudga keltiruvchi omillardan biridir. Darhaqiqat bola diqqatini bir joyga to'plab darsda o'tira olmasa, tafakkur operatsiyaslari yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa, xotirasi sust, o'qituvchi o'tgan yangi mavzuni idrok qilish sust bo'lgani uchun, mavzuni tushunmasa, bunday o'quvchi o'zlashtirmovchi o'quvchilar qatoriga qo'shilishi mumkin.

Alohida ta'lim ehtiyojli bolalarda o'zlashtirmovchilikni vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omillar haqidagi savolimizga o'qituvchilar quyidagicha javob berdi:

3.2.3-jadval

O'zlashtirmovchilikni vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omillar


N	O'zlashtirmovchilikni vujudga kelishiga sabab bo'luvchi omillar	%
1	Ota-onaning bola bilan shug'ullanmasligi	69.6
2	Psixik jarayonlarning yetarlicha rivojlanmaganligi	27.4
3	Bolaning maktabda o'qishiga yetarlicha tayyor bo'lmasligi	13.4
4	Individual shug'ullanishga vaqt yetishmasligi	10.4
5	Bolaning ko'p kasal bo'lishi	5.5
A	Qiziqishning sustligi	2.9
B	Barcha omillar ta'sir qiladi	2.5
C	Oilaviy sharoit	1.5
D	Bolaning ko'p dars qoldirishi	0.9
E	Darsliklarning yetishmasligi	0.5
F	O'quvchining layoqatsizligi	0.5
J	Nasl	0.5

3.2.3-jadvalda olingan natijalarning 100 foizdan ortiq chiqishiga ayrim respondentlarning o'zlashtirmovchilikka ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatishda faqat bir javob bilan chegaralanmay, bir necha omillarni takidlashgan, shuning uchun natijalar 100% dan ortiq chiqqan.

13.4 % respondentlar bolaning maktabda o'qishiga yetarlicha tayyor bo'lmasdan kelishi o'zlashtirmovchilikni vujudga keltiruvchi omildir, deb ta'kidlagan. Agar bola maktabga kelganda ixtiyoriy diqqati, aqliy qobiliyati yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa, ijobiy o'quv motivatsiyasi shakllanmagan bo'lsa, bunday o'quvchi tengqurlaridan har tomonlama orqada qoladi.

3.2.3-jadvalda aks etgan natijalarning yanada yaqqol tasavvur etish uchun quyida diagramma shaklida taqdim etamiz.

O'ZLASHTIRMOVCHILIKNI VUJUDGA KELTIRUVCHI OMILLAR



Dars va tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar turli topshiriqlarni bajaradilar. Qachonki, o'quv topshiriqlari bolalarning uquvlari hamda nutqiy rivojlanish imkoniyatlaridan kelib chiqib tayyorlansagina, ta'lim jarayoni mashq maydoni, motivatsion muhitga aylanadi. Mazkur bolalarning ijtimoiy hayotga ruhan tayyor bo'lish mezonlari talablariga, avvalo, o'qituvchi va tarbiyachilar tayyor bo'lishlari muhimdir. Zero, ularning qanchalik psixologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, shunchalik ta'lim jarayonining o'quvchilar uchun qulay ishchi muhitga aylanishida muhim omildir. Ushbu modelning tarkibi sohaga taaluqli ta'limotlar va amaliyotda qo'llanilgan tajribalarni umumlashtiruvchi mezonlardan tashkil topdi.

Inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'quvchilarda o'zlashtirish darajalari aniqlandi. Ushbu guruh tajriba guruhi deb hisoblanadi. Bunga biz maxsus dastur

asosan ta'lim jarayoni tashkil etilgan. Nazorat guruhi esa an'anaviy shaklda darslar tashkil etilgan bo'lib, sog'lom boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot natijalarini quyidagi 3.2.4-jadvalda keltirilgan.

3.2.4-jadval.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zlashtirish darajasi ko'rsatkichlari

O'zlashtirish darajalari				
Guruhlar	O'qituvchilar soni (45 nafar)	Yuqori	O'rta	Past
Nazorat guruhi	22	21 %	35 %	44 %
Tajriba guruhi	23	35 %	46%	19 %

Jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, nazorat guruhining yuqori natija to'plagani 21%, tajriba guruhi esa 35% tashkil etdi. Samaradorlik 14 % ni tashkil qildi.

Demak, maxsus dastur va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professiogrammasiga muvofiq inklyuziv ta'limni tashkil etishlari natijasida ta'lim samaradorligi oshganini ko'rish mumkin.

Keyingi ishlarimiz aynan inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professiogrammasini yaratamiz.

3.3. Inklyuziv ta'limda boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik professiogrammasi

Har bir kasbga, jumladan, inklyuziv ta'limda boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbga professiogramma yaratish uchun tavsiya qilingan tizim besh bo'limdan iborat. Ular:

I. Mutaxassislik haqida umumiy ma'lumot.

II. Mehnat jarayoni tavsifi.

III. Mehnatning sanitar-gigienik sharoitlari.

IV. Kasbiy faoliyatning psixofiziologik tavsifi.

V. Inklyuziv ta'limda kasbiy tayyorgarlikning pedagogik shart-sharoitlari (kasbiy tayyorgarlik uchun zaruriy talab va me'yorlar) mavjud.

Inklyuziv ta'limda boshlang'ich sinf o'qituvchisi professiogrammasi. Xalq xo'jaligining-xalq ta'limi sohasi (o'qituvchi).

I. Mutaxassislik haqida umumiy tushuncha

1.1. Mutaxassislikning yuzaga kelishi tarixi.

O'qituvchilik eng qadimiy kasblardan hisoblanadi. O'qituvchilik kasbining vujudga kelishi kishilik jamiyati tarixida tarbiyaning paydo bo'lishi, ya'ni insonlar to'plagan xatti-harakatlar, yurish-turish, mehnat sohasidagi va turmush kechirish uchun yuzaga kelgan dastlabki tajribalar, urf-odatlar, aqliy, axloqiy, ilohiy bilimlarni yoshlarga o'rgatish; yozuv ixtiro qilingach, o'qish, yozishni o'rgatish uchun tashkil etilgan dastlabki maktablarning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

Markaziy Osiyoda eramizdan avvalgi ming yillikda ham katta-katta qo'rg'onlar, shaharlar, davlatlar mavjud bo'lgan. Ularda din, yozuv, maktablar va madaniyat shakllanib rivoj topgan.

Shu tariqa, kishilik jamiyatining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida shu xalqning e'tiqodi, mafkurasi va ilg'or g'oyalari bilan hamohang (uyg'unlashgan holatda) ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyojlar, o'quv-tarbiya jarayonlari va u bilan bog'liq bo'lgan zaruriy sharoitlar, o'qituvchi bilimi, shaxsi va faoliyati rivojlanib kelgan.

1.2 .Ilmiy texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holatda kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan o'zgarishlar.

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda, o'qituvchining kasbiy faoliyati milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimida yuz bergan jahon miqyosidagi fan-texnika yutuqlarini egallash asosida,

istiqbol vazifalarni ilgari surish va hal etish jarayonida o'zgarib, takomillashib boradi.

1.3. O'quv-tarbiyaning texnologik jarayonida kasbning o'rni va roli.

O'qituvchi o'z sohasining bilimdoni va namunali xulqi bilan fidoyi inson sifatida har bir o'quv mashg'ulotiga davlat ta'lim standarti, shunga asoslangan o'quv reja va namunaviy o'quv dasturiga binoan puxta tayyorgarlik ko'radi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Mazkur mashg'ulotning sifat samaradorligini ta'minlash uchun zaruriy ko'rgazmali qurollardan, mahalliy va hududiy materiallardan, zamonaviy texnik vositalardan, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan o'rinli va unumli foydalanadi.

1.4. Kasb rivojining istiqbollari.

Barkamol insonni voyaga yetkazish, jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish, kuchli demokratik fuqarolik jamiyati qurish bilan bog'liq milliy dasturning barcha muhim vazifalarini hal qilishda o'qituvchi kasbi g'oyat muhim rol o'ynaydi. Shu bois, o'qituvchi kasbi barcha zamonlarda va hamma vaqt e'zozli kasbligicha qolaveradi.

1.5. Turdosh (yaqin) kasblar.

1. Tarbiyachilar
2. Ijtimoiy fan o'qituvchilari
3. Tabiiy fan o'qituvchilari
4. Aniq fan o'qituvchilari
5. Adabiyotshunoslar
6. Olimlar

1.6. Mutaxassisning ishlashi lozim bo'lgan joylar.

Maktab, maktabgacha tarbiya muassasasi, litsey, kasb-hunar maktabi, oliy ta'lim muassasalari, xalq ta'limi bo'limlari, pedagogika ilmiy tekshirish institutlari.

1.7. Mehnatga haq to'lash tizimi va o'rtacha ish haqi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rtacha ish haqi-bir oyda 2-3 million

soʻmni tashkil etadi. Ish faoliyatida erishgan yutuqlari va turli xil bayramlar munosabati bilan doimiy moddiy ragʻbatlantirib boriladi.

II. Mehnat jarayoni tavsifi.

2.1. Faoliyat doirasi (sfera) va ish turi.

Inklyuziv taʼlimda boshlangʻich sinf oʻqituvchisi mutaxassisligi ijtimoiy-gumanitar soha doirasiga kiradi. Mazkur kasb egalari asosan aqliy mehnat bilan shugʻullanadilar. Oʻqiydi, uzluksiz malaka va mahoratini oshirib boradi, mashgʻulotlarga tayyorgarlik koʻradi, oʻquv-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etadi va boshqaradi. Ish faoliyati aqliy va jismoniy harakatlar yordamida amalga oshadi.

2.2. Mehnatning maqsadi va predmeti.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi mehnatining maqsadi oʻquvchilarga va alohida taʼlim ehtiyojli oʻquvchilarga oʻqish va yozishni oʻrgatish orqali voqelikdagi jamiki narsa-hodisalar haqida bilim berish, ularda insonga xos boʻlgan sifat hamda fazilatlarini shakllantirish. Mehnatning predmeti-oʻquvchi, taʼlim, tarbiya.

2.3. Asosiy mehnat qurollarining tipi va ularning qisqacha tavsifi.

Oʻquv reja, oʻquv dastur, oʻquv darsligi, oʻquv qoʻllanma, har bir mashgʻulot boʻyicha maʼruza matni, sinf jurnali, daftar, doska, yozuv qurollari, shuningdek inklyuziv taʼlim materiallari, mashgʻulotlarni samarali tashkil qilishga moʻljallangan oʻquv texnika vositalari va boshqalar. Mazkur mehnat qurollari mashgʻulotning sifati va samaradorligi bilan bir qatorda uning yaxlitligi, uzviyligi, mantiqiy izchilligi va bir butunligini taʼminlaydi.

2.4. Asosiy (etakchi) ishlab chiqarish jarayoni.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich sinf oʻqituvchilari boshqa fan oʻqituvchilari kabi oʻquv-tarbiya jarayonlarini belgilangan qonun va qoidalarga binoan tashkil etadi va amalga oshiradi.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchisi mehnatining ishlab chiqarishga oid tavsifi: mazkur faoliyat ogʻir va murakkab boʻlib, yosh bolaning (7-11 yosh) jismoniy, aqliy va axloqiy kamoloti koʻp jihatdan boshlangʻich sinf oʻqituvchisining

shaxsiy kamoloti va kasbiy tayyorgarligiga uzviy bog'liqdir. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchi yana muntazam o'z ustida mustaqil ishlashi ta'lim-tarbiya sohasidagi yangi bilimlarni, ilg'or tajribalarni o'rganib borishi, ijodiy izlanishi va ulardan kasbiy faoliyatda samarali foydalanishi shart. O'qituvchi bir kunda 8-10 soatgacha ishlaydi. U maktabda 4-5 soat dars mashg'ulotini o'tkazsa, kutubxona, o'quv zali yoki uyda sohasiga doir zaruriy bilim va yangiliklarni o'rganishi, ertangi mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida mustaqil ishlashi uchun yana 4-5 soatgacha vaqt sarflaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim tizimi va o'quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari va xalq ta'limini boshqaruvchi idoralar buyruqlarini muntazam o'rganib, unga amal qiladi. Maktab pedagogika kengashi, boshlang'ich ta'lim uslubiy kengashi, shu sohaning tajribali mutaxassisleri va ota-onalar hamda jamoatchilik kengashi bilan doimiy hamkorlikda ishlaydi.

O'quvchilarning yosh davriga (7-11 yosh) xos jismoniy va psixologik rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlarini o'rganib, ularni e'tiborga olgan holda, o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etadi.

O'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun ta'lim-tarbiyaning an'anaviy metodlari bilan birga yangi pedagogik texnologiyaga asoslangan innovatsion, interfaol va psixologik treninglarga xos metodlardan ham samarali foydalanib boradi.

O'qituvchi haftada bir kun-yakshanba kuni, har bir o'quv choragi yakunida (4 kundan-10 kungacha) va o'quv yili yakunida mehnat ta'tiliga chiqib, dam oladi.

2.5. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ish faoliyatining tarkibiy qismlari.

1. Ertangi o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarga tayyorgarlik ko'rish: manbalarni o'qish, o'rganish, tahlil qilish, zaruriy xulosalar chiqarish, dars mashg'ulotlari, tarbiyaviy ishlar rejasini tuzish va matnini tayyorlash.

2. Ta'lim berish.

3. Tarbiyalash.

4. Sinf o'quvchilarida yosh davriga xos bo'lgan jismoniy va psixologik xususiyatlar hamda rivojlanish qonuniyatlarini kuzatib, o'rganib borish va o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ularni e'tiborga olish.

5. Maktab pedagogika kengashi, boshlang'ich ta'lim uslubiy kengashi a'zolari, shu sohaning tajribali mutaxassislari, ota-onalar hamda jamoatchilik kengashi bilan hamkorlikda ishlash.

6. Bilim, malaka va mahoratini oshirish uchun o'z ustida muntazam ishlash.

2.6. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xosligi.

- Inklyuziv ta'limni tashkil
- Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
- Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi
- Bog'lanishning mavjud bo'lishi
- Markazlashtirilmagan bo'lishi
- Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi
- Boshlang'ich sinf o'qituvchisi inklyuziv ta'lim tamoyillariga

asoslanishi

2.7. Qiyinchilik turlari.

Eng avvalo, boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxslilik va inklyuziv ta'lim bo'yicha kasbiy tayyorgarligi belgilangan talab va me'yorlar darajasida bo'lmasligi ushbu pedagogning faoliyatida muammolar va qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Agar, o'qituvchining shaxslilik va kasbiy tayyorgarligi belgilangan talab va me'yorlar darajasida bo'lsa, u holatda uning faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklar asosan ertangi o'quv-tarbiya jarayoniga tayyorgarlik ko'rish yoki sinfda o'quv-tarbiyani amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlarning yetarli bo'lmaganligidan; o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini to'liq e'tiborga olmaganlikdan; shuningdek, muallimning maktab o'qituvchilari jamoasi, o'quvchilarning ota-onasi, mahalliy

jamoatchilik bilan hamkorlikni yetarli darajada yo'lga qo'ya olmaganligidan kelib chiqishi mumkin.

III. Mehnat sharoitining sanitar-gigienik holati.

3.1. Mehnat sharoitining mikroiklimi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv yili 1 sentyabrdan-25 maygacha davom etadi. O'quv yilining noyabr, mart, aprel oylarida yomg'ir yog'adi, dekabr, yanvar, fevral oylarida qor yog'adi, ba'zan qattiq sovuq bo'ladi, Sentyabr, may oylarida kun issiq bo'ladi. Aholining ko'pchilik qismi qishloqlarda yashaydi. Yomg'irli kunlarda yerning loy bo'lishi, qishda haroratning pasayib ketishi, yozda haroratning ko'tarilib ketishi va chang-to'zonlarning qo'zg'alishi o'qituvchi mehnat sharoitining sanitar-gigienik holatiga keskin salbiy ta'sir etadi.

Umumta'lim maktablarda inklyuziv ta'limning pedagogik faoliyatni takomillashtirishda, alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan va oddiy o'quvchilar orasidagi munosabat, muloqotchanlik, moslashuvchanlik, shuningdek, jalb etilgan o'quvchilar kasallik tashxislaridan kelib chiqib, turli korreksion pedagogik-psixologik metodlarni doimiy olib borish, mavjud muammolarni hal etishda yordam beradi. Bular inklyuziv ta'lim-tarbiya tizimining sifat-samaradorligini oshirishda, integratsiyasida yetarli darajada xizmat qiladi. Bu jarayonda bolalarni ruhiy holat, kechinmalari tahlil qilinadi.

3.2. Ish rejimi va ritmi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining ish rejimi va ritmi aniq belgilab qo'yilgan me'yorlarga asosan amalga oshiriladi. Ba'zi holatlarda milliy (hayitlar, bayramlar, va boshqa) yoki hududiy (iqlimiy, ommaviy hasharlar) tadbirlar munosabati bilan o'zgarib turishi mumkin.

3.3. Kasb uchun zarariy omillar.

Mehnat faoliyatining murakkab va og'irligi, uning uzluksiz bir joyda davom etishi, o'qituvchidan muntazam ravishda kuchli e'tibor, chidam, sabr-bardosh va mas'uliyatni talab qilishi unda kuchli toliqishni yuzaga keltiradi, jismoniy va psixologik toliqish hamda zo'riqishlar kasbiy kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

3.4. Mehnat faoliyati jarohatlari (travma).

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mehnat faoliyati davomida shu soha mutaxassisleri uchun belgilab qo'yilgan ish rejimi va me'yorlariga amal qilmasa, bunday holatlar o'qituvchida asta-sekin mehnat faoliyati travma- (jarohat)larini keltirib chiqarishi mumkin.

Umumta'lim maktablarda inklyuziv ta'limning pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirishda alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar uchun eng muhim xususiyat ularda ma'naviy jihatdan kamolotga intilishning kuchayishidir. Chunki voqelikka, kishilarga munosabat hayotda o'z-o'rnini topishga intilishi chuqur ichki motivatsiya orqali sodir bo'ladi. Ularning fanlar va kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish o'quvchilarning ta'lim muassasalariga kelgan kunlaridanoq boshlanadi.

3.5. Kasb kasalligi.

O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirish jarayonida belgilab qo'yilgan qoida va me'yorlarga amal qilmaslik, texnik jihatdan xavfsizlikni unutish o'qituvchida sezgirlikning susayishi, parishon-xotirlik, nevroz, revmatizm va turli ichki kasalliklarning shakllanishiga olib keladi.

3.6. Mehnatni himoya qilish va yengilliklar bo'yicha tadbirlar.

O'zbekiston Respublikasida boshqa davlatlardan farqli o'laroq, o'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi; ular ta'lim-tarbiya sohasida erishgan yutuqlari uchun yuksak baholanib, davlatimizning orden va medallari bilan mukofotlanadilar. Ularga bayramlarda, shuningdek, dam olishlari, salomatliklarini tiklashi va to'y-hashamlari uchun moddiy rag'batlantirish hamda pul mukofotlari berib boriladi.

IV. Kasbiy faoliyatning psixofiziologik tavsifi.

4.1. O'qituvchining axborotlarni qabul qilish hajmi va xarakteriga umumiy baho.

O'qituvchi kasbiy faoliyatida bevosita o'quv-tarbiya jarayonining borishini, ta'lim sub'ektlari holatini, ularning ta'lim jarayoniga, pedagogga, birlariga, atrofidagi voqelikka nisbatan munosabatlarini faol kuzatish, ko'rish,

eshitish va idrok qilish asosida, olayotgan axborotlarini fikran tahlil qilib boradi.

O'qituvchi biror-bir sabab bilan o'quv-tarbiya jarayonida yoki boshqa holatlarda yuz berishi mumkin bo'lgan yoki yuzaga kelgan o'zgarishlar, salbiy holatlar va muammolarni zudlik bilan ilg'ab olib, uni o'rganishi, tahlil qilishi va zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqib, uni amaliyotga oqilona qo'llashi mumkin.

4.2. Sezgi a'zolarining sezuvchanlik xususiyatlari.

Tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv-tarbiya jarayonida va boshqa holatlarda ayniqsa ko'rish, eshitish, teri-tuyish, hid bilish, ta'm bilish, harorat va organik sezgilari yordamida o'quvchilarning ko'rinishi, o'zini tutishi, yuz qiyofasi, ko'z ifodasi harakatlari, nutqi va boshqa jihatlarini kuzatish orqali o'quvchi holatiga va shu vaziyatga to'g'ri baho bera oladi.

4.3. O'qituvchining aqliy faoliyatiga (kuzatuvchanligi, diqqati, xotirasi, tafakkuri, xayoli) umumiy baho.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari yosh davrining jismoniy va psixologik rivojlanish xususiyatlari, shunga mos ravishda tashkil etilgan o'quv-tarbiya jarayonlarining kechishi undan o'ta kuzatuvchanlikni, alohida e'tiborni talab etadi.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar, yuzaga kelgan muammoli holatlarni tezda o'rganib, o'qituvchi o'zining shaxsiy tajribasi va bilimiga asoslangan holda muammoni tahlil qiladi, taqqoslaydi hamda muammoni yechishning eng ma'qul yo'lini tanlaydi. Yana shunga o'xshash xatolarning takrorlanmasligi uchun ta'limiy va tarbiyaviy choralar hamda istiqbolli tavsiyalar ishlab chiqadi va o'quv-tarbiya jarayonida undan o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida samarali foydalanadi.

4.4. Harakatlariga umumiy baho.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun quyidagi harakat, malaka va mahoratlar: o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarni ko'rish orqali nazorat qilish va baho berish; eshitish orqali nazorat qilish va baho berish, o'quvchilar orasida bo'lib, ular faoliyatini kuzatib tahlil qilgan holda baholash, ravon, tushunarli va qiziqarli, mantiqli, emotsional nutqdan foydalanish, doskaga yozish, chizish

orqali yoki ko'rgazmali qurollar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish (qo'llash), o'quvchilar bilan samimiy muloqot va do'stona hamkorlikni yo'lga qo'yish mahorati zarur hisoblanadi.

4.5. Ruhiy-asab kuchlanishni (bosimni) talab qiladigan shaxslilik xususiyatlari.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun zaruriy shaxslilik xususiyatlari: bilimdonlik, qobiliyatlik, mahorat, emotsional barqarorlik, o'zini tuta bilish, sabr-bardoshlilik, o'z faoliyatini nazorat qila olish, vaziyatni to'g'ri baholash, fikrlash asosida bir qarorga kelish, uzoqni ko'ra bilish, qat'iylik, dadillik, matonat, mas'uliyat va javobgarlikni his etish, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik va boshqalar.

V. Inklyuziv ta'limda kasbiy tayyorgarlikning pedagogik shart-sharoitlari (kasbiy tayyorgarlik uchun zaruriy talab va me'yorlar) mavjud.

5.1. O'quv muassasi tiplari va ularga qisqacha tavsif.

Maktab inklyuziv ta'lim bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogika oliy ta'lim muassasalari (universitetlar va pedagogika institutlari) tayyorlaydi. Kasb ikkala jins (erkaklar va ayollar) vakillari uchun bir xil. O'qish muddati oliy ta'lim muassasalarida-4 yil.

5.2. O'qishga qabul qilish shartlari.

Oliy ta'lim muassasalarida o'rta-maxsus va kasb-hunar ta'limini egallagan (maktab, akademik litsey tamomlagan) o'quvchilar davlat test sinovlari natijalari asosida qabul qilinadi.

5.3. Kasbiy bilimning asosiy mazmuni.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogika tarixini, amaldagi yangi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun maktab ta'limini, shu jumladan boshlang'ich ta'limni, boshlang'ich sinf o'quv predmetlari asoslarini, inklyuziv ta'lim, pedagogika va psixologiya fanlarining hozirgi zamon yutuqlarini hamda ta'lim-tarbiya berishning ilg'or usullarini egallagan bo'lishi shart.

5.4. Kasbiy o'sishning istiqboli.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligi va shaxslilik kamoloti bilan kasbiy faoliyatga qo'yilgan talablarga to'liq javob bersa, u o'z faoliyati davomida kasbdan kutilayotgan istiqbollarga: tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchisi, boshlang'ich ta'lim uslubiy kengashi raisi, boshlang'ich sinflar bo'yicha o'quv ishlari boshqaruvchisi, maktab direktori, xalq ta'limi boshqarmalarida boshlang'ich ta'lim bo'yicha mas'ul vazifalarga erishib boradi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quv-tarbiya jarayonlarining dolzarb muammolariga bag'ishlangan mavzularda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajalariga erishishi mumkin.

III-BOB BO'YICHA XULOSA

O'quv mashg'ulotlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj toifadagi bolalar, jumladan, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashga mas'ul ijtimoiy xodimlar ishtirok etdi. Ular individual rejalarini ishlab chiqish bo'yicha o'z g'oyalarini taklif qilishdi, ularni maktab rejalariga kiritish jarayonida hisobga olingan. Bunday tizim maktabda ishlayotgan barcha mutaxassislar va ota-onalarga bolalarning bilim olish jarayonini, ularning taraqqiyotini kuzatib borish, o'z oldiga yangi maqsadlar qo'yish va bolalarni jamiyatga integratsiyalashuvining qiyin yo'lidan borishga undashda yordam beradi.

Maktabda ijtimoiy o'qituvchi lavozimining mavjudligi xavf ostida bo'lgan bolalarni qamrab olish va ijtimoiylashtirish g'oyalarini amalga oshirish va amalga oshirishga yordam beradi. Ijtimoiy pedagog psixolog maqomiga ega, xulq-atvori buzilgan, moslashuvi buzilgan bolalar bilan ishlaydi, o'quvchilar, ota-onalar, muloqotda, ijtimoiylashuvda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar bilan nizolarni hal qiladi. Ijtimoiy pedagoglarga o'quvchilarning ijtimoiylashuv darajasini baholash, deviant xulq-atvorning oldini olish va to'g'rilash, ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini va to'g'ri xulq-atvorini oshirish bo'yicha usullar taklif etildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tilni o'zlashtirish jarayonini tekshirish shuni ko'rsatadiki, tilga ilmiy qarash asoslarini shakllantirish uning muhim bog'lanishlarini bilishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi boshlang'ich ta'limni, boshlang'ich sinf o'quv predmetlari asoslarini bilish bilan birga inklyuziv ta'lim texnologiyalari, metod va vositalarini egallagan bo'lishi shart. .

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

1. Bugungi kunda nogironligi bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Ushbu ishlarni tashkil qilishda maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni inklyuziv ta'limga joriy etilishi bo'yicha dasturlarni tahlil ishlari olib borilmoqda.

2. Inklyuziv ta'lim- barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.

2. Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotga oid chuqur o'zgarishlar kundalik turmushimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan birga, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarish jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Bu sayyoramiz aholisining o'ndan bir qismini tashkil etadi. Umumjahon sog'liqni ekologik saqlash tashkiloti ma'lumotlari dunyoda bunday kishilar soni 13% ga yaqinligidan dalolat beradi. Shundan 3% intellektida kamchiligi bo'lgan bolalar, 10% turli ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bolalardir. Mustaqil O'zbekistonimizda nogironlar bolalikdan ijtimoiy himoya qilib kelinmoqda.

3. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

4. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishida nihoyatda yuqori e'tiborni talab qiluvchi umuta'lim tizimining sohasi hisoblansa, imkoniyati

cheklangan bolalar esa jamiyatning ijtimoiy qatlamidir, chunki ularning ko'pchiligi kam ta'minlangan oilalarda voyaga yetganlar. Inklyuziv ta'lim – bu imkoniyati cheklangan bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko'pchilik bolalar uchun amalga oshiriluvchi ta'lim tabirlariga jalb etishdir. Shundagina imkoniyati cheklangan barcha bolalar jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim borasida, balki bolalarning ma'naviy va jismoniy o'sishlari, shuningdek vositalarni iqtisod qilish borasida ham samaralidir.

5. Inklyuziv ta'limda boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik professiogrammasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: Mutaxassislik haqida umumiy ma'lumot; mehnat jarayoni tavsifi; mehnatning sanitar-gigienik sharoitlari; kasbiy faoliyatning psixofiziologik tavsifi; inklyuziv ta'limda kasbiy tayyorgarlikning pedagogik shart-sharoitlari (kasbiy tayyorgarlik uchun zaruriy talab va me'yorlar) mavjud.

Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarida boshlang'ich ta'lim fanlarini samarali o'qitishga oid metodik tavsiya

Tadqiqot jarayonida amaliyotga qator **tavsiyalar** tatbiq etildi va ularning samaradorligi tajriba-sinovlar orqali o'z isbotini topdi. Ular quyidagilar:

1. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

2. inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat'iy nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishni ta'minlashga qulay imkoniyat yaratish;

3. Muassasalarda tarbiyaviy mashg'ulotlarning muayyan jadval hamda reja asosida, paralel sinflarda bir xil reja va mavzularda olib borilishini ta'minlash.

“Tarbiyaviy mashg‘ulotlarni rejalashtirish” dasturiga rioya etish hamda respublika miqyosida “Ijtimoiy hayotga tayyorlash soati” mashg‘uloti uchun ishlab chiqilgan dasturning joriy etilishiga erishish. Ushbu dasturda berilgan mavzularga oid mashg‘ulotlar ishlanmalarini sinflar kesimida o‘quvchilarning yoshi, individual xususiyatlari hamda jismoniy va ruhiy nutqiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish.

4. Har bir fanni o‘qitishda va har bir korreksion hamda tarbiyaviy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarda mavzuga oid hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga e‘tibor berish hamda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda jarayonning individuallikka erishish. Differensial, yakka, refleksiv yonlashuvlarning ustuvorligini ta‘minlovchi usul, vositalardan foydalanish hamda “Yakka rivojlanish” talabi asosida ishlashni yo‘lga qo‘yish.

5. “Ona tili va o‘qish savodxonligi”, “Matematika” darslarida quyidagi uslubiy yondashuvlardan foydalanish tajribasini yo‘lga qo‘yish:

-darsliklar mazmuni asosida o‘quvchilarning mustaqil hamda o‘zaro birgalikdagi faoliyatlarini tashkil etishga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlaridan foydalanish;

-konstruksiya o‘quv topshiriqlarini bajartirish uchun “Variatika” doskasidan keng foydalanish, jumladan, mos so‘zni topish, rasm tagiga so‘zni qo‘yish va boshqa mustaqil ishlashni ta‘minlaydigan didaktik instruksiyalarni ko‘p takroriylik asosida qo‘llash;

6. Muassasalarda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ijodiy ishlarini muntazam qo‘llab-quvvatlash hamda ularni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash maqsadida bosqichli (maktab, tuman, viloyat) tanlovlar, ko‘rgazmalar, auksionlar tashkil etish.

7. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik professiogrammasi tarkibiga inklyuziv ta‘lim shartlarini kiritish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.:”O‘zbekiston”, 1993-46 b .
2. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risida to‘g‘risida qonuni. T.: 2020-O‘RQ-637-son
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O‘zbekiston, 2016.- 56 b.
4. Mirziyov SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: O‘zbekiston, 2017-488 b.
5. Mirziyov SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: O‘zbekiston,2017.-48 b.
6. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017.-104 b.
7. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild.-T.:O‘zbekiston, 2017.- 592 b.
8. Mirziyoev SH.M. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. T.: 2022 yil PF-60-son.
9. Mirziyoev SH.M. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qaror. T.: 2020 yil 13 oktyabr, PQ-4860-son.
10. A.G.Ryzskaya. M.Prosvershenie.1990 yil.
11. Abdullaeva N.Sh, Mahmudov S.Yu. Variability of the educational system as a subject of scientific research// European Research: Innovation in science, education and technology. London, Great Briatain, May 7-8, 2018 B.89-91. (13.00.00. №3)
12. Abdullayeva Q., Rahmonova S. Ona tili darslari (usuliy qo‘llanma). Toshkent, 1999.

13. Abdullayeva Q Ona tili darslari (usuliy qo'llanma). Toshkent, 1999.
14. Alekhina S.V. Ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim sharoitlarini tashkil etish. Ko'rsatmalar.// MG'U - M, 2012.
15. Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish mavzusidagi ilmiy - nazariy konferensiya materiallari. Toshkent—Uzinkomsentr-2002-yil.
16. Alohida yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy reabilitatsiyasi. T.: RBIMM, 2014.
17. Avliyoqulov N.X. “Zamonaviy o'qitish texnologiyalari”- Toshkent,2001
18. Ayupova Yu.Korreksion pedagogika. -T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2007.
19. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.Toshkent-2005
20. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.Toshkent-2005 M.E.Jumayev,Z.G'.Tadjiyeva
21. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.Toshkent-2005 M.E.Jumayev,Z.G'.Tadjiyeva
22. Diagnostika i korreksiya psixicheskogo razvitiya doshkolnikov// Pod red— Ya.L. Kolomenskogo, Ye.A. Panko. Minsk, 1997.
23. Diagnostika psixofizicheskogo razvitiya detey pervix trex let jizni. Muminova L.R., Chicherina Ya.E., Nurkeldieva D.A. T.:RSSAD, 2007g.
24. [Ekslayn V.](#) Igrovaya terapiya izdatelg'stvo: [Izd-vo instituta psixoterai](#), M.: 2007-4216 s.
25. Fayzieva U., Qodirova F. va boshqalar. “Ona tili” kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining 4-sinf darsligi. XTV. RTM. Toshkent. “Yangiyo'l”, 2019 6 b.t. (3-nashr) .
26. FayziyevaU., Nazarova D., Kolbayeva X.J.Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi. O'XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisef.XBJ. T., 2005 -75 b.

27. Harakat rejasiga kirish 3 chi band
28. Ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. Nurkeldieva D.A., Chicherina Ya.E. T.: Yangi asr avlodi, 2007.
29. Inklyuziv ta'lim fanidan kurs ishi. Jizzax 2004
30. Intellektual and Developmental Disabilities. John W. Jacobson, James A. Mulick and Johannes Rojahn. 2007 Springer Science+Business Media, LLC New York.
31. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2005-147 b.
32. K.Q. Mamedov, G'.B. Shoumarov "Aqli zaif bolalar psixologiyasi" Toshkent- "O'qituvchi"-1994
33. Kaxarova D. S. Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni takomillashtirishni pedagogik-psixologik jihatdan asoslash. Diss.f.f.p.d. Samarqand.: 2019- 137 b.
34. Konki R.M. Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish. Toshkent-YuNESKO-2004-107 b.
35. Korreksion pedagogika va logopediya. Raxmanova V.S. Toshkent-2007
36. Logopediya Ayupova M.Yu. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati" T.:2007.
37. Logopsixologiya. V.A. Kalyagin, T.S. Ovchinnikova. –M.: Akademiya, 2006.
38. Ma'rifat gazetasi. 24.02.2021
39. Matematika o'qitish metodikasi fan dasturi. Samarqand-20
40. Mamedov K.Q., Shoumarov G'.B. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. Toshkent- "O'qituvchi"-1994
41. Maxsus pedagogika "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018
42. Maxsus pedagogika. Lola Mo'minova, Mukarram Ayupova, Dilbar Nurkeldiyeva, Xurniso Kalbaeva. "Noshir" Toshkent-2016

43. Maxsus pedagogika. Po‘latova P.M. va boshqalar. T.: "Fan va texnologiyalar", 2014.
44. Maxsus pedagogika. Raxmanova V.S. T.: "G.Gulom" nashriyoti, 2005.
45. Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati" I.Mo'minova. D.Nazarova. Toshkent-2010-yil.
46. Mo'minova L.R Inklyuziv ta'lim. Dastur. T., 2014
47. Muxamedov G'. I. Klaster ta'limga nisbatan innovatsion yondashuv sifatida. pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar mavzusidagi xalqaro ilmi-yamaliy onlayn konferensiya materiallari. Chirchiq, 2021-1663 b.
48. Muxamedov G'.I., Xo'jamqulov U.N. Klaster ta'limga nisbatan innovatsion yondashuv sifatida // TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA 2020/2-son. B.22-27.).
49. Nabixonova SH.B. Razvitie professionalnoy kompetentnosti vospitateley doshkolnyx obrazovatelnyx organizatsiy. T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa konserni. T.: 2021-116 s.
50. Nazarov X. E. Matematika o'qitish metodikasi. Samarqand.: 2019-97 b.
51. Nazarova N.M. Maxsus pedagogika, II bo'lim. Maxsus ta'limga muhtoj shaxslar uchun maxsus ta'lim. 1-bob. Maxsus pedagogika didaktikasi asoslari 1.2. Maxsus ta'lim tamoyillari// ACADEMA - M, 2000 y.
52. O'quv metodik qo'llanma "Inklyuziv ta'lim" X.N.Muzaffarova, D.Tangirova. Jizzax-2011
53. Oligofrenopedagogika asoslari" A.I.Soatov.K.X.Mametov
54. Oligolienopedagogika F.M.Po'latova. T.2012
55. Ona tili o'qitish metodikasi" ma'ruzalar matni. Andijon 2018-yil
56. Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent "Nosir" nashriyoti 2009
57. Ona tili o'qitish metodikasi". Jizzax 2013-yil
58. P.M.Po'latova. Toshkent, "O'qituvchi" 1994 yil

59. Patopsixologiya: Teoriya i praktika: Ucheb, posobie dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy. –

60. Psixicheskaya pazvite vospitanikov deskova doma” I.B.Dubrovina

61. Psixologicheskaya pomosh detyam s problemami v razvitii. Mamaychuk I.I. SPb.: Rech.- 2001.

62. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Pod redaksiey. IYu.Levchenko S.D.Zabramnoy. M., ACADEMA, 2005.

63. Qodirova F.U. Maxsus ta’lim o’qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash omili sifatida. “Boshlang’ich ta’lim va jismoniy madaniyat yo’nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammomo va yechimlar”. O’zbekiston respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi. ToshDU. O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti, ToshDJTI. Xalqaro konferentsiya materiallari. Toshkent, 2017. –B. 157-159.

64. Qodirova F.U. “Tevarak-atrof bilan tanishtirish” kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining 2-sinf darsligi. XTV. RTM. Toshkent. “Ekstremum-press”, 2018. 12 b.t. (3-nashr).

65. Qodirova F.U. Boshlang’ich sinflarda kar va zaif eshituvchi o’quvchilar so’zlashuv nutqini shakllantirish. Diss.p.f.n.T.:2006.-150 b.

66. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash va jamiyatga uyg’unlashtirish muammolari va ularning samarali yechimlari.// ”Spetsialnaya inklyuziya: novqe orientirq sotsializatsii detey”. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi Markazi. Xalqaro konferentsiya materiallari to’plami. Toshkent, 2017. –B89-91.

67. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning o’rni.// Maktab va hayot.-Toshkent, 2018. -№ 7. –B. 12-15. (13.00.00. № 2).

68. Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari.// Zamonaviy ta’lim.-Toshkent, 2018. -№ 8. –B. 73-79.(13.00.00.№10).

69. Qodirova F.U. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida korreksion mashg'ulotlarni tashkil etishning samarali mexanizmi. //Maktab va hayot.- Toshkent, 2019. -№4.-B. 7-10. (13.00.00. № 2).

70. Qodirova F.U. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limi mazmunida o'timallashuv masalalari. //Maktab va hayot. -Toshkent, 2019. -№5.-B. 38-41. (13.00.00. № 2).

71. Qodirova F.U. Kar va zaif eshituvchi bolalarning maktabgacha va maktab ta'limi uzviyligini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlari.// Uzluksiz ta'lim.-Toshkent, 2019.-№2.-B. 32-38. (13.00.00.№9).

72. Qodirova F.U. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali omili sifatida.//Zamonaviy ta'lim.-T., 2018. -№ 10.-B. 55-62. (13.00.00.№10).

73. Qodirova F.U., Qayumova V. "Nutq o'stirish" kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining 3-sinf darsligi. XTV. RTM. Toshkent. "Niso poligraf", 2019. 6 b.t. (2-nashr)

74.Qoraboyev Husniddin Kamolovich"BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISH MASALALARI O'QUV
MODULI" Samarqand-2021

75. Roy Mark Konki "Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent-YUNESKO-2004yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.

76. Roziqov X., Qodirova F., G'anieva O. "Talaffuz" kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining 2-sinf darsligi. XTV. RTM. Toshkent. "O'qituvchi", 2018. 12 b.t. (2-nashr).

77. Savod o'rgatish. G'ulomova X.,Gofforova I., T.,2009

78. SHomaxmudova R.SH "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent 2011 y.

79. Umumiy pedagogika "Fan va texnologiya" nashriyoti,2018

80. Yaroshevskiy M.G. Entsiklopedicheskiy slovar v shesti tomax./red.sost. L.A.Karpenko.pod obo‘.red. A.V.petrovskogo .-M.:, 2005.- s-78-79.

81. Yordamchi maktablar uchun ona tili,o‘qish va nutq o‘stirish dasturi”
V.Ramanova. T.,2003

Internet manbalari

82. <http://studopedia.ru>.

83. <https://moluch.ru>.

84. <https://nsportal.ru/detskiy-sad/upravlenie-dou>

85. <http://banauka.ru>.

86. WWW.OPENSOURCE.uz

87. [www.uzedu.uz]

88. [www.unicef.org]

89. [www.advice.uz]

Ilovalar

1-ilova

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, ularning ixtisoslashuviga muvofiq quyidagi (I — VIII) turlarga bo'linadi:

I — kar (eshitmaydigan) bolalar uchun maktab-internatlar;

II — zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar (1, 2-bo'lim);

III — ko'zi ojiz (ko'r) bolalar uchun maktab-internatlar;

IV — zaif ko'radigan va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

V — nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

VI — tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

VII — psixik rivojlanishi sust bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar;

VIII — aqli zaif bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlar.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida sinflarning soni, eng avvalo, ta'lim jarayoni uchun sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari talablarini hisobga olgan holda hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi turiga, undagi o'quvchilar kontingenti va sinflarning to'ldirilishiga ko'ra belgilanadi:

Ta'lim yo'nalishi turlari va sinflardagi bolalar toifalari	Sinflarning o'quvchilar bilan to'ldirilishi	
	O'quvchilarning minimal soni	O'quvchilarning maksimal soni
1. I — II turlar:		
Kar (əshitmaydigan) bolalar uchun	8	10
Zaif əshituvchilar va keyinchalik kar bo'lgan (1, 2-bo'limlar) bolalar uchun	10	12
2. III — IV turlar:		
Ko'r (ko'zi ojiz) bolalar uchun	8	10
Zaif ko'ruvchilar va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun	10	12
3. V tur:		
Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun	10	12
4. VI tur:		
Poliomielit xastaligi oqibatlari bo'lgan bolalar uchun	10	12
Serebral falaji oqibatlari bo'lgan bolalar uchun	10	12
5. VII tur:		
Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun	12	16
6. VIII tur:		
Engil darajadagi aqli zaif bolalar uchun	12	14
O'rta va og'ir darajadagi aqli zaif bolalar uchun	8	10
*Barcha turdagi ixtisoslashtirilgan muassasalarda ta'lim olayotgan murakkab nuqsonli (rivojlanishida 2 ta va undan ko'p nuqson bo'lgan) bolalar uchun	6	8

Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlardagi tarbiya guruhlarida va ixtisoslashtirilgan maktablardagi kuni uzaytirilgan guruhlarda bolalar soni quyidagicha belgilanadi:

Ta'lim yo'nalishlari turlari va bolalar toifalari	Tayyorlov sinflaridagi bolalar soni	Tarbiya guruhlari va kuni uzaytirilgan guruhlarining minimal to'ldirilishi	
		Boshlang'ich sinflardagi bolalar soni	Yuqori sinflardagi bolalar soni
1. I-II tur:			
Kar (eshitmaydigan) bolalar uchun	8	8	12
Zaif eshituvchilar va keyinchalik kar bo'lgan (1, 2-bo'limlar) bolalar uchun	8	8	12
2. III-IV tur:			
Ko'r (ko'zi ojiz) bolalar uchun	10	10	12
Zaif ko'ruvchilar va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun	10	10	12
3. V tur:			
Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun	10	10	14
4. VI tur:			
Poliomielit xastaligi oqibatlari bo'lgan bolalar uchun	8	12	14
Serebral falaji oqibatlari bo'lgan bolalar uchun	8	8	10
5. VII tur:			
Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun	8	12	16
6. VIII tur:			
Engil darajadagi aqli zaif bolalar uchun	8	12	12
O'rta va og'ir darajadagi aqli zaif bolalar uchun	8	10	10
*Barcha turdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qiyotgan murakkab nuqsonli (rivojlanishida 2 va undan ko'p nuqson bo'lgan) bolalar uchun	6	6	8

Raxmanova Dilfuza Uchkunovna

INKLYUZIV TA'LIMDA FANLARNI
O'QITISHNING PEDAGOGIK
SHART- SHAROITLARI

MONOGRAFIYA

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «Fan ziyosi» nashriyotiga
2021 yil 14 fevralda berilgan 308197041-sonli litsenziyasi
Nashriyot manzili: Toshkent shahri, A.Navoiy ko'chasi, 30 uy.

Ofset qog'ozi. Bichimi 60x84. 1/16
Times garniturasida ofset usuli. Shartli bosma tabog'i 6,75
Buyurtma № 19.03.04.2023. Adadi 100 nusxada
«Munis design group» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100000 Toshkent sh., Buz-2 mavze, 17-A uy.